

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Himoyaga ruxsat etilsin”**

Ijtimoiy-iqtisodiy fakultet dekani

\_\_\_\_\_ t.f.n., N. Dehqonov

20\_\_y. “\_\_” \_\_\_\_\_

5111600 – “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi  
kunduzgi bo'lim 4-kurs MIG'-72-14 – guruh talabasi

**ISROILOV AZAMXON ABDUVOXID O'G'LI**

**“Mulkiy munosabatlarning ijtimoiy strukturadagi o'rni” mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: f.f.n. O. V. Mamatov**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari  
va huquq ta'limi”

kafedra mudiri O.V. Mamatov

“\_\_” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**Namangan-2018**

## **Reja**

### **Kirish**

#### **I–bob. Ijtimoiy struktura va mulkiy munosabatlar**

##### **I.1. Ijtimoiy struktura va mulk tushunchasi**

##### **I.2. Mulkiy munosabatning ijtimoiy strukturaga va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri**

##### **I.3. Ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy strukturaga mulkiy munosabatlar nuqtai nazardan yondoshuv**

#### **II–bob. Strukturaviy yondoshuv va va mulkka egalik barqarorlik va taraqqiyot omili.**

##### **II.1. O‘zbekistonda ijtimoiy strukturaning o‘ziga xosligi**

##### **II.2. Strukturaviy yondoshuv –barqarorlikni ta'minlashning muhim omili: ijtimoiy struktura va mafkuraviy jarayonlar**

### **Xulosa**

#### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati**

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida–RF–4947–sonli farmonida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi» degan tamoyilni amalga oshirish; vazifasi yuklatilgan. Demak mulkiy munosabatlarni takomillashtirish masalasi, mulkdorlar sinfini qo‘llab–quvvatlash masalasi bugunning dolzarb masalalaridan biridir, zero mulkdorlar sinfi jamiyat taraqqiyotining kafolatidir.<sup>1</sup>

Farmonda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish vazifalari qo‘yilgan. Sundan kelib chiqqan holda jamiyatning turli ijtimoiy huruhlari o‘ratsidagi aloqalarni musrtahkamlash, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan mavzu nihoyatda dolzarb va mulkdorlar sinfini rivojlantirish O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Xususan, mulkdorlar sinfi jamiyatning ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ma'naviy rivojlanishining muhim tayanchi bo‘lib qoladi. «Bu yerda gap,- deb yozadi I. A. Karimov,- agar mulk shakllari xilma-xilligi va birinchi navbatda xususiy mulk har qanday davlatning demokratik . negizlari barqarorligining iqtisodiy asosi hisoblansa, real ishlab chiqarish vositalarining o‘rta mulkdorlardan iborat kuchli qatlamining mavjud bo‘lishi uning siyosiy asosi ekanligi haqida bormoqda. Aholi orasida haqiqiy mulkdorlar o‘rta qatlamining ko‘pchilikni tashkil etishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони – ПФ47-49. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида\ Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари.Тошкент: Ғафур Ғулом. 2017.–Б. 40.

islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafolati hisoblanadi»<sup>2</sup>

### **Bitiruv malakaviy ishining o'rganilish darajasi,**

Hozirgacha jamiyadagi mulkiy munosabatlar? Ularning rivojlanish gonuniyatlariga oid anchagina ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlarning barchasini tahlil qilish imkoniyati va hatto zaruriyati bo'lmaganligi tufayli, faqat uning o'rganilishi darajasidagi muammolar bilan cheklanamiz. Jamiyatning ijtimoiy strukturasi masalasi qadim zamonlardayoq mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lgan. Masalan; Aristotel<sup>3</sup>, Aflotun asarlarida jamiyatga yahlit organism sifatida qarab ijtimoiy guruhlarni uning tarkibiy qismi sifatida, har bir guruhning jamiyatdai o'rni tadqiq qilingan.<sup>4</sup> Ko'pgina adabiyotlarda jamiyat tizimi mulkiy munosabatlar asosida taxlil qilingan. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida ko'plab rus sotsiologlari, P. L. Lavrov, N. K. Mixaylovskiy, M. M. Kovalevskiy, G. V. Plexanovlar o'zlarining bir qator ilmiy ishlarida sotsial guruhlar mavzusiga to'xtalib o'tishgan. Rus olimlari V. P. Rejin<sup>5</sup> "Marksistik sotsiologiyaga kirish"(1962) asarida, Yu. Kuchinskiy "Sotsiologik qonunlar"<sup>6</sup> asarida ijtimoiy guruxlarni marksistik nazariya asosida o'rgandilar. Ilk bor ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini V. F. Gegel<sup>7</sup>, keyinchalik K. Marks<sup>8</sup> asarlarida o'rganilgan.

Mulkiy munosabatlar masalasi Shermuxamedova<sup>9</sup>. Barulin.V.S<sup>10</sup>. Islomov Z<sup>11</sup>. Nazarov Q<sup>12</sup>. asarlarida tahlil qilingan.

---

<sup>2</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон ХХІ Аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари-Т.: Ўзбекистон, 1997,-Б.196.

<sup>3</sup>Аристотель. Метафизика – М.: 1937.- 457с

<sup>4</sup>Йўлдошев С. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Т:Шарқ, 2003 – Б.51.

<sup>5</sup> Режин. В. П. Марксистик социологияга кириш – М.1962.

<sup>6</sup> Кучинский. Ю. Социологик қонунлар – 1971.

<sup>7</sup> Гегель. В. Ф. Философия права – М.1970.

<sup>8</sup> Qarang: Фалсафа. (Э.Ю.Юсуповнинг умумий тахрири остида.) -Т.: «Шарқ», 1999. -496 б.

<sup>9</sup> Шермухамедова Н. Фалсафа.– Т.: 2010.

<sup>10</sup> Барулин.В.С. Социальная философия. – М.: ФАИР-ПРЕСС,1999.

<sup>11</sup> Исломов З. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. - Т.: ТДЮИ.2002.

<sup>12</sup> Назаров Қ. Билиш фалсафаси. – Т.: Университет, 2005.

**Bitiruv-malakaviy ishining maqsadi va vazifalari** Mulkiy munosabatlarning ijtimoiy strukturadagi o'rnini tahlil qilish asosida uning jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos jihatlari yoritib berish.

**Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi.** Ijtimoiy struktura va mulk tushunchasi, mulkiy munosabatning ijtimoiy strukturaga va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy strukturaga mulkiy munosabatlar nuqtai nazardan yondoshuv, O'zbekistonda ijtimoiy strukturaning o'ziga xos jihatlari kabi masalalar o'rganib chiqildi.

**Bitiruv-malakaviy ishining ob'ekti va predmeti:** Bitiruv-malakaviy ishining ob'ekti ijtimoiy taraqqiyot qonunlari, Predmeti esa ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining ob'ektiv xususiyatidir.

**Bitiruv-malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari** Ishning nazariy asosi shu davrgacha bo'lgan faylasuflarning ijtimoiy taraqqiyotga yondoshuvlari, mulkiy munosabatlarga oid qarashlari tashkil etadi, **Metodologik asosini** esa I. Karimov va Sh. Mirziyoev asarlari hamda ijtimoiy nazariyalar, tarixiylik, mantiqiylik prinsiplari tashkil etadi.

**Bitiruv-malakaviy ishining amaliy ahamiyati** Bitiruv malakaviy ishidan ijtimoiy falsafani o'rganishda, jamiyat taraqqiyotini rejalashtirishda qo'llanma sifatida foydalansa bo'ladi.

**Bitiruv-malakaviy ishining tuzilishi.** Ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I–bob. Ijtimoiy struktura va mulkiy munosabatlar**

### **I.1. Ijtimoiy struktura va mulk tushunchasi**

Etimologik nuqtai nazardan «ijtimoiy» degan soʻz «jamiyat» atamasi bilan sinonimdir. U keng ma'noda «jamiyatning ijtimoiy sohasi»ni belgilaydi. Shu jihatdan jamiyatning hamma sohalar – iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalar ijtimoiy sohalar deyiladi. Biroq shu bilan birga jamiyatning alohida *ijtimoiy sohasi* boʻlib, *u – har xil ijtimoiy guruhlar, turli darajada uyushgan elatlar* (ijtimoiy qatlam, strategiya, etnoslar, ijtimoiy demokratik guruhlar, alohida jamoalar va boshqalar) *oʻrtasidagi munosabatlarni* ifodalaydi. Ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari shundaki, ular jamiyatning hamma sohalariga kirib borgan. Ularni faqat iqtisodiy, siyosiy yoki ma'naviy munosabatlar, deb ajratish mumkin emas.

Shuni aytish mumkinki, ijtimoiy sohaning asosini *individning ijtimoiylashuvi* tashkil qiladi, ya'ni bunga uning me'yorlar, qadriyatlar, namunali xulq koʻrsatmalarini bajarishi kiradi. Agar iqtisodiy va ma'naviy sohalarda individ moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqaruvchi va ehtiyojlarni ta'minlovchi boʻlsa, siyosiy sohada siyosatning ob'ekti va sub'ekti boʻlsa, ijtimoiy sohada esa ijtimoiy individdir, ya'ni u sotsiumning (jamiyatning) a'zosidir. Individ sotsiumga turli guruh va birlashmalar orqali a'zo boʻlgani uchun turli guruh va birlashmalarining faoliyati ijtimoiy sohaning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ijtimoiy birlashmalar va guruhlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishini (strukturasini) tashkil qiladi.

Ijtimoiy struktura oʻz tabiatiga koʻra ob'ektiv xususiyatga ega boʻlib, u qonun chiqaruvchining qarorlari boʻyicha ta'sis etilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Jamiyatning ijtimoiy strukturasi undagi guruhlarining oʻzaro aloqadorligi va oʻzaro ta'sirini ham oʻz ichiga oladi.

Jamiyat strukturasi quyidagi turlarini ajratish mumkin: demokratik, etnik, ijtimoiy-sinfy, joylashishiga koʻra hududiy, kasbiy-ma'rifiy, konfessional tuzilish va boshqalar.

Jamiyatning *ijtimoiy-sinfy strukturasi*ga kelsak, u sinflar, qatlamlar, tabaqalar, stratlardan iboratdir. Sinflar deganda odamlarning katta guruhlarini tushuniladi, ular quyidagi sifatlari bilan farq qiladi: a) ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi ma'lum o'rni; b) ishlab chiqarish vositalariga munosabati; v) mehnat taqsimoti tizimidagi roli; g) foyda olish usuli; d) ijtimoiy boylikdagi ulushi bilan. Lekin bir qator guruhlar ham borki, ular sinflarga xos xususiyatlarga ega emas (ziyolilar, byurokratiya, lyumpenlar va boshqalar), shunga qaramay ular baribir ijtimoiy strukturaning elementi hisoblanadilar.

Hozirgi zamon jamiyat falsafasida ijtimoiy strukturani o'rganishda *stratifikatsiyaviy yondashuv* mavjud. Uning asoschilaridan biri P.A.Sorokinning yozishicha: «Ijtimoiy stratifikatsiya – bu ierarxiya darajasiga qarab differensiya qilingan odamlar (aholi)ning bir guruhlaridir. Uning asosi va mohiyati huquq va imtiyozlarning, javobgarlik va vazifalarning nomutanosib taqsimlanganligi, ijtimoiy qadriyatlarning mavjudligi yoki yo'qligi, u yoki bu hamjamiyatga kiruvchi guruhlarini hokimiyati va a'zolar o'rtasidagi ta'sirini bor-yo'qligidan iborat. «Strat» va «sinf» tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa ham, ular bir-birlaridan farq qiladilar. «Strat» tushunchasi o'zida keng doiradagi hodisalarni mujassamlashtirib, «sinf» tushunchasiga nisbatan moslashuvchidir.

Hozirgi zamon jamiyati uchun kasbiy-ma'rifiy strukturaning ahamiyati kattadir. Sotsium qanchalik darajada rivojlangan bo'lsa, bu struktura shunchalik murakkab va sertarmoq bo'ladi. Bu tuzilma ijtimoiy mehnatning chorvachilik va dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, aqliy va jismoniy mehnatga bo'lingach paydo bo'ldi. Ba'zi kasb-hunarlar vaqt o'tishi bilan eskirib, kerak bo'lmay qoladi va ularning o'rniga ulardan ham ko'proq kasblar paydo bo'ladi. Masalan, faqat birgina XX asr davomida deyarli hamma izvoshchilar yo'q bo'lib, uchuvchi va kosmonavtlar paydo bo'ldilar. Uy shveytsarlari yo'q bo'lib, ko'psonli «sekyuriti»lar paydo bo'ldilar. Ko'psonli ko'chirib yozuvchilar o'rniga kompyuterlarda ishlovchi kotiblar paydo bo'ldi. Hozirgi zamon jamiyatini yuqori darajali ta'limsiz tasavvur qilish qiyin. Shuning

uchun ham uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimini zamon talablari asosida rivojlantirish O'zbekiston taraqqiyotining asosiy ustivorliklaridan biri hisoblanadi.

Islohotlar davrida iqtisodiy bazisda yuz bergan o'zgarishlar jamiyatning ijtimoiy strukturasi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Sovet davrida markscha-lenincha nazariyaga ko'ra jamiyatda ikkita sinf mavjud edi: iqtisodiy asosi davlat mulki bo'lgan ishchilar sinfi; kolxoz – kooperativ mulkka suyanadigan kolxozchi-dehqonlar sinfi va ijtimoiy qatlam bo'lgan – ziyolilar. Bunday bo'linishning birdan-bir mezonini – mulkka bo'lgan munosabat edi. Asosiy yetakchi kuch – ishchilar sinfi hisoblanib, uning vazifasi butun dunyoda kommunistik jamiyat qurish edi. Mamlakatda chuqur islohotlar amalga oshirilayotgan va ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlari kechayotgan hozirgi davrda bunday yondashuvni qabul qilib bo'lmaydi. Metodologik nuqtai nazardan butun dunyoda tan olingan ijtimoiy stratifikatsiya nazariyasini qo'llash to'g'ri bo'ladi. Bu nazariyaga asosan jamiyatda nafakat mulkka munosabatiga ko'ra, balki boshqa turli ko'rsatkichlarga asosan farq qiladigan turli ijtimoiy qatlamlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Haqiqatan ham ishchilar sinfi ichida tabaqalashuv jarayoni ketmoqda – masalan, davlat korxonalaridagi ishchilar qator ko'rsatkichlar bo'yicha, shu jumladan ish haqiga ko'ra, xususiy korxonalaridagi ishchilardan farq qiladi. Aksionerlik korxonalar paydo bo'lishi bilan ishchilarda mulkning yo'qligi bilan bog'liq asosiy belgi yo'qoladi. Ishchi endi korxonaning aksiyalariga ega bo'lishi va shu korxonaga yoki biror bir boshqa mulkka birgalikda egalik qilishi mumkin.

Malakalarning darajasi bo'yicha ham tabaqalashuv jarayoni yuz bermoqda. Jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi ishchilar yangi texnika va texnologiya bilan ishlovchi ishchilardan farq qiladi. Jismoniy ishni aqliy ish bilan birga olib boruvchi «zangori yoqalilar» deb ataluvchi qatlam ham paydo bo'ldi. Ishlab chiqarishning zamonaviylashuvi natijasida aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi «oq yoqalilar» deb ataluvchi injener-texnik ishchilar, boshqaruvchilarning ham



soni borgan sari oshib bormoqda. Industrial mehnat ko'rsatkichlari bo'yicha ham ishchilar qatlamlarga ajralmoqda. Agrar sektorda ham xuddi shunday jarayon yuz bermoqda. Hozirgi fermer (dehqon) maqomi moddiy daromadi bo'yicha kolxozchidan farq qiladi. Qishloqlardagi kichik korxonalarda ishlovchi ishchilar shahar ishchilaridan farq qiladi va boshqalar. Ammo hozirgi davrning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ishlab chiqarish sohasida ham, xizmatlar ko'rsatish sohasida ham xususiy mulkka ega bo'lgan ijtimoiy qatlamning paydo bo'lmoqda. Intellektual mulkka ega bo'lganlar esa, alohida o'rinni egallaydi. Bular hali kichik qatlam bo'lsalar ham, bozor iqtisodiyoti munosabati shakllanishi sharoitida ular katta kelajakka ega. Ular nafaqat ishlab chiqarish sohasida, balki siyosiy sohaga ham, madaniyatni rivojlantirishga ham o'z hissalarini qo'shishlari kerak. Xuddi shu qatlam yangi munosbatlarning shakllanishi asosida «o'rta sinf»ga aylanuvchi, shakllanib borayotgan o'rta qatlamning negizi bo'lagidir. «O'rta qatlamlarning qimmati shundaki, ular mexanik tarzda davlat yordamida yoki inqilobiy tadbirlar (quyi sinfga xos bo'lgan) orqali boyib ketish mumkin emasligini anglab yetadilar. Ularning ma'naviy qarashlarining asosi: iqtisodiy farovonlik organik ravishda mehnatsevarlik, kuch-g'ayrat, tadbirkorlik va ma'rifatga bog'liqdir», - deb uqtiradi S.L.Frank<sup>13</sup>. Faqat o'rta sinfgina fuqarolik jamiyatning asosini tashkil qilib, hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarida siyosiy barqarorlikni saqlab turadi. Bizning mamlakatimizda shakllanadigan jamiyat ham xuddi shunday bo'lishi kerak.

Yangi jamiyatning shakllanishi jarayonida va unga yo'ldosh «o'tish inqirozi» chog'ida odamlarning mulkiy tabaqalashuvi chuqurlashadi. Bir tomondan, boylar «yangi o'zbek»lar paydo bo'ladi, boshqa tomondan esa odamlarning ko'plab qismini yashash darajasi pasayadi. Boylar va kambag'allar o'rtasidagi yashash tarzining farqi jamiyatda noroziliklarni vujudga keltiradi. Buning oldini olish uchun *kuchli ijtimoiy siyosat* olib borishga to'g'ri keladi.

---

<sup>13</sup> С.Л.Франк. По ту сторону «правого» и «левого» // Новый мир, 1990. №4, 222-б.

Bunday ijtimoiy siyosatning mohiyati taqsimlash, tenglashtirish yo‘li bilan borishdan iborat emas. Ijtimoiy siyosat mohiyatiga asosan, birinchidan, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar uchun o‘zlarini va oilalarini boqishi, tashabbus ko‘rsatishi, tadbirkorligi, bilimlarini qo‘llashi va boshqalar uchun bir xil sharoitlarni yaratish zarur; ikkinchidan esa, mehnat haqi belgilab qo‘yilgan odamlarga, ya'ni byudjet sohasida ishlovchilarga, inflyasiya darajasiga qarab haq to‘lash kerak bo‘ladi. Uchinchidan, pensionerlar, o‘quvchi (talaba)lar, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish zarur. Va nihoyat, ko‘p bolali va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish lozim.

Kishilarning birliklari ichida sinf to‘laligicha ijtimoiy tabiatga egadir. Hozirgacha hanch kim insoniyat jamiyati rivojlanishi ibtidoiy davri nihoyasidan boshlab kishilarning sinfiy tabiatga ega bo‘lganini inkor etgan emas.

Manbaalarda qayd etilishicha, birinchi marta qadimgi Rimda yangi eradan avvalgi IV asrda kishilarning mulkiy holatidan kelib chiqib, harbiy maqsadlarni ko‘zlagan holda muayyan guruhlarga, sinflarga ajralishi yuz bergan.

Xo‘sh, sinfnin o‘zi nima? Ma'lumki, XVIII asr oxirida yuz bergan fransuz inqilobi davrining tarixchilari bo‘lgan mutafakkirlar sinflar kurashi to‘g‘risidagi masalani ilgari surgan edilar. Marksistlar sinflar mavjudligi va kurashini iqtisodiy sabablardan keltirib chiqarib, bular o‘rtasidagi munosabatni hayot-mamot jangi tarzida qaradilar. Bunday nuqtai nazar va uni voqyelikka aylantirish uchun urinish insoniyatga qanchalik qimmatga tushganligi hozir hammaga ma'lum.

Sinflar kishilarning jamiyatda tutgan mavqeyi-mulkka munosabati, ishlab chiqarishni tashkil etishdagi o‘rni, yaratilgan moddiy, ma'naviy boyliklardan qanday miqdorda va qaysi shaklda olishiga qarab belgilanuvchi ijtimoiy guruhlaridir.

Hattoki shaxs tushunchasining shakllanishida mulkchilikningo‘rni bor.

Shaxs tushunchasini «individ» tushunchasidan farqlash lozim. Falsafada insonga nisbatan «individ» emas «individuallik» ishlatiladi. Bu muayyan insonning aloqadaligi va betakrorligidir. Inson individ shaklda tugʻilar ekan, u shaxsga aylanish uchun oʻzining barcha ichki imkoniyatlarini, individualligini namoyon qilishi kerak boʻladi. Individuallik xaqida turli darajada gapirish mumkin. Masalan, bioximik, neyrofiziologik, psixologik va xokazo. Lekin bu individuallik shaxs tushunchasini toʻliq aks ettirmaydi. Shaxs esa ong va oʻz — oʻzini anglash paydo boʻlishi bilan yuzaga keladi,

«Individ» va «Individualizm» bir — biriga yaqin atamalar boʻlsa ham xar birini oʻziga xos mazmun va mohiyati bor. Agar individ deganda mustaqil yashaydigan tirik vujud, shaxsni tushunilsa, "individualizmni kelib chiqishi falsafa qomusiy lugʻatida toʻkri yozilishicha, uning mohiyatini asoslashga qaratilgan qarashlar shaxsni jamoaga qarama — qarshi koʻyishni ifodalovchi tamoyil sifatida xususiy mulkning paydo boʻlishi bilan bir paytda shakllangan.<sup>8</sup>

Falsafa qabul qilingan individ tushunchasi uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. Uning shakllanish davrining boshlanishi ibtidoiy jamoa bosqichiga tugʻri keladi. Uning jismoniy mavjudligi, individ sifatida mustaqilligi oʻzi mansub boʻlgan urugʻ jamoasi doirasida boʻladi.

Ma'lumki, urugʻ jamoasining yemirilishi bilan asta — sekin ijtimoiy mehnat taqsimoti, xususiy mulkchilik, bir xotinlikka asoslangan oilaning qaror topishi oʻrta davr uchun xos boʻlgan individdan yuksak boʻlgan yangi bosqich kelib chiqishini ta'minlagan. Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida falsafada "individ" emas "individuallik" atamasi ishlatilgan.

Jamiyat a'zolarining tabaqalashuvi hozirgi vaqtda bir qator oʻzgarishlarga uchradi. Ularning yalpi miqdorida oʻrta qatlamning oʻrni jiddiy tarzda oshmoqda. Hunarmandlar, mayda korxonalarining egalari, mayda savdogarlar, dehqonlar va fermerlar, kam sonli erkin kasb egalari hamda yollanib ishlovchi ziyolilar, ishlab chiqarish, savdo, maorif, davlat va jamoat muassasalarining xizmatchilari va boshqalar oʻrta qatlamni tashkil etadi.

Agar sinfiy nazariya jamiyatning ijtimoiy strukturasi gorizontal kesimda o'rgansa, undan farqli ravishda ijtimoiy stratifikatsiya nazariyasi jamiyatni vertikal kesimda o'rganadi. Bu nazariya ijtimoiy mobillik, ijtimoiy ko'chish, harakatchanlik nazariyasining shakllanishi uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ochiq va demokratik jamiyatda individ, ijtimoiy tabaqa doimo harakatlanib turadi, ular ijtimoiy strukturada o'z o'rinlari va mavqelarini o'zgartirib turadilar. Individlar, ijtimoiy birliklar va qatlamlarning ijtimoiy holat va mavqeining ijtimoiy strukturada o'z o'rinlari va mavqelarini o'zgartirib turadilar. Individlar, ijtimoiy birliklar va qatlamlarning ijtimoiy holat va mavqeining ijtimoiy strukturada o'zgarib turishiga ijtimoiy mobillik deyiladi.

Ijtimoiy mobillik (harakatchanlik) vertikal va gorizontal yo'nalishda sodir bo'ladi. Vertikal yo'nalishda individning mavqeyi «yuqoriga» va «quyiga» tomon o'zgaradi, gorizontal yo'nalishda individ bir xil ijtimoiy doira ichida harakatlanadi.

Siyosiy tuzum tabiatiga qarab ijtimoiy sinflar, ijtimoiy tabaqalar, ijtimoiy guruhlar jamiyatda turlicha ijtimoiy statusni egallaydilar. O'tish davrida mulkchilik xilma-xil shakllarining vujudga keltirilishi, tadbirkorlik va xususiy mulkchilikning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi bilan jamiyatimiz ijtimoiy strukturasi yangi sinf, ijtimoiy qatlam va ijtimoiy institutlar vujudga keldi

Respublikamiz hukumati o'tkazayotgan ichki siyosat yaqin istiqbolda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishga va bunda xususiy mulk, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilyapti. Chunki «kichik biznes -jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadil-lashtirishga yordam beradigan o'rta tadbirkorlar sinfining paydo bo'lishi demakdir» (197- bet).

Hozirgi paytda O'zbekiston jamiyati ijtimoiy strukturasi tarkibi qanday? Mavjud adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari, rahbarlarning nutq va

maqolalarida O‘zbekiston uchun xos bo‘lgan quyidagi ijtimoiy sinflar, ijtimoiy qatlamlar va ijtimoiy guruhlar qayd etilyapti :

- turlicha tarkibdagi oliy siyosiy elita,
- ma'muriy, diplomatiya, partiya arboblari, harbiy, huquqiy, xo‘jalik va madaniyat rahbarlari,
- boshqaruv apparatini idora qilayotgan o‘rta qatlam,
- yetakchi xo‘jalik (birlashmalar, korxonalar, korporatsiyalar, bank ) rahbarlari,
- mutaxassislar (turli daraja va yo‘nalishdagi xizmatchilar),
- diniy muassasa xodimlari,
- turli malakali va ijtimoiy statusli ishchilar,
- jamoa xo‘jaligi va korporatsiya a'zolari,
- individual mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kosib va hunarmandlar,
- kichik tadbirkorlar,
- talabalar,
- sinfiy qiyofasini yo‘qotgan ijtimoiy elementlar (mahbuslar, fohishalar),

Jamiyat ijtimoiy strukturasi sinf muhim o‘rin tutadi. Bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini belgilovchi kuch mulkdorlar sinfidir. Ular mulkni ko‘z qorachig‘iday avaylab asraydilar, uni ko‘paytirishga, moddiy farovonlikni yaratishga intiladilar, mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotida aktiv ishtirok etadilar. Mulkdorlar, demokratik jamiyatning muhim ijtimoiy - siyosiy tayanchidir.

So‘z erkinligi, vijdon erkinligi, matbuot erkinligi singari demokratik institutlarning amal qilishi, ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim sharti, bu -ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, aholining tinch-totuvligi va insonlarning samarali mehnat faoliyatidir. Darhaqiqat, I. A. Karimovning «O‘zbekiston buyuk kelajak sari» asarida ta’kidlanganidek, «xavfsizlik, barqarorlik, mamlakatning sobitqadamlik bilan rivojlanishiga erishish uchun islohotlarni amalga oshirish zarurligi va ana shu asosda odamlarimizning farovonligini va jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini egallashini ta’minlash - mohiyat e’tibori bilan davlat mustaqilligi va suverenitetiga, xalq erkinligi va tengligiga erishishning asosiy mazmuni, aytish mumkinki, pirovard, abadiy maqsadidir.»<sup>14</sup>

Jamiyat iqtisodiy tuzumining falsafiy tahlilini tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bulardan birinchisi ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida kelib chiqadigan munosabatlarni ifodalasa, ikkinchisi ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan mulkchilik munosabatlarini aks ettiradi.

Mulk tushunchasi inson o‘ziga tegishli bo‘lgan narsalar, shu jumladan, o‘zining hayoti, jismoniy va ma’naviy kuchlariga egalik qilish huquqiga ega bo‘lgandagina yuzaga keladi.

Mulk odatda, ikki shaklda, bir-birini taqozo kelgan holda xususiy va umumiy shaklda bo‘ladi. Dastlab ibtidoiy tuzum sharoitda mulk barcha jamoa a’zolariniki hisoblangan. Quldorchilik tuzumidan boshlab esa xususiy mulkchilik hukmron bo‘lgan. Sharq mamlakatlardagi sug‘orma dexqonchilikka asoslangan ishlab chiqarishda davlatning xo‘jalik yurgizishga rahbarligi taqozo etilganligi, uning qo‘lida sug‘orish kanallari, aloqa xizmati va hokazolarning bo‘lishligini shart qilib qo‘ygan. Bu esa mulkchilik munosabatlarining shakliga ham ta’sir etgan.

Inson va jamiyat o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun aniq o‘rni va vaqtiga ko‘ra mulkni zarur shaklini tanlashi mumkin.

---

<sup>14</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари-, Т.: Ўзбекистон, 1998.-Б. 682.

## **I.2. Mulkiy munosabatning ijtimoiy strukturaga va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri**

Inson ehtiyojlarining muttasil o'sib borish qonuniyati mavjud siyosiy sistema oldiga qator talablar qo'yadi. Mamlakatimizda uzoq yillar davomida hukm surib kelgan ma'muriy buyruqbozlikka asoslanuvchi siyosiy sistema o'zining tub mohiyati bilan shaxsning har tomonlama erkin rivojlanishiga imkon bermaganligi uchun ham muqarrar ravishda inqirozga yuz o'girdi. Iqtisodiy tanazzul siyosiy sistemaning yemirilishiga olib keldi. «Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish muqarrar ravishda shu paytgacha misli kurilmagan siyosiy faollik sharoitida yuz beradi. bu hol tabiiydir. Shu paytga kelib karaxtlik holatidan halos bo'lgan jamiyat to'planib qolgan jami ijtimoiy ziddiyatlarni bir zumda yuzaga chiqaradi».<sup>15</sup>

Jamiyatni boshqarish tizimi har bir xalqning milliy xususiyat, psixologiyasi, an'nalari. madaniy salohiyatiga mos ravishda vujudga keladi. Turli jamiyatlarda siyosiy boshqarish usullarining turlicha xarakteri ularning ilg'or yoki qoloq ekanligidan dalolat bermaydi. Siyosiy boshqarishning har bir usuli turli tarixiy sharoitlarda turlicha samara berishi mumkin. Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borgani sayin siyosiy boshqaruv usullari ham tobora insoniylashib boradi. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi siyosiy boshqaruvning demokratik shakli ancha qulay va insonparvar ekanligini ko'rsatdi. Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistonning respublika deb e'lon qilinishi va mamlakat Konstitutsiyasining qabul qilinishi jamiyatimizni siyosiy boshqarish jahon hamjamiyatining ilg'or tajribalariga, xalqimizning ma'naviy salohiyatiga tayanishidan dalolat beradi.

Ochiq demokratik jamiyatda davlat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar tashabbuskori, jamiyat rahnamosi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demokratik jamiyatda siyosiy boshqarish huquqiy davlatchilik asoslarini yaratishni taqozo

---

<sup>15</sup> И.А.Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.-Б.182.

etadi. qonun ustuvorligi demokratik jamiyat va davlat hayotining muhim sharti hisoblanadi. Demokratik davlat jamiyatni boshqarishda konstitutsiya talablariga bo'ysunar ekan, u jamiyatni tanho boshqarish da'vosini qilmaydi. Balki jamiyatni boshqarishda turli diniy, ilmiy tashkilotlarga, jamoat tashkilotlariga, aholining o'z-o'zini boshqarish organlariga keng vakolatlar beradi. Demokratik jamiyatda dinning davlatdan, maktabning diniy muassasalardan ajratilishi, kishilarga vijdon erkinligi huquqining berilishi progressiv hodisa, jamiyat erkin rivojlanishining muhim shartidir.

Odatda dunyoviy va diniy davlatlar bir-biridan farqlanadi. Dunyoviy davlatlar konstitutsiyaga, ilm-fan xulosalariga asoslanadi. Diniy yoki teokratik davlatlar diniy ta'limot va shariat hukmiga asoslanadi. Bunday davlatlar o'z fuqarolarining vijdon erkinligini ta'qiqlaydi; ta'lim-tarbiya asosan diniy ruhda olib boriladi.

Demokratik davlatda ta'lim-tarbiya muassasalari jamiyatni oqilona boshqarishga yaqindan yordam beradi; yosh avlodga puxta siyosiy va huquqiy bilim beradi, mavjud ahloqiy, huquqiy normalarni singdiradi, siyosiy ong va madaniyatni rivojlantiradi. «Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash - mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning asosiy yo'nalishidir»<sup>16</sup>

Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, yetilgan muammolarni oqilona hal etish, mamlakat fuqarolarining siyosiy faolligini oshirish-jamiyat siyosiy tizimini tashkil etuvchi barcha boshqaruv organlari va tashkilotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Jamiyat a'zolarini umumiy maqsad yo'lida yanada jipslashtirish, ijtimoiy-siyosiy faollikni kuchaytirishda milliy g'oya va milliy mafkura muhim rol o'ynaydi. g'oyaviy mushtaraklik jamiyatdagi turli ijtimoiy guruh, qatlam va sinflarda birdamlik tuyg'usini

---

<sup>16</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.: Ўзбекистон 2000.-Б.29.



kuchaytiradi, turli siyosiy harakat va partiyalar faoliyatini bunyodkorlik ishlariga yo‘naltiradi.

Respublikamizda bozor munosabatlariga o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoyalashga alohida e‘tibor berila boshlandi. «Tarix sabog‘i shundayki, -deb yozadi I.A.Karimov, - uning aynan keskin burilishlarida, ijtimoiy formatsiyalar almashinayotganda ijtimoiy muammolar va zidsiyatlar g‘oyat keskinlashadi, milliy xavfsizlikka, fuqarolar tinchligiga va barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanadi».<sup>17</sup>

Mamlakatimizning milliy mustaqillik yillarida orttirgan tajribasi jamiyat barqarorligi, tinch-totuvligini ta'minlashda ijtimoiy sohaga ko‘proq e‘tibor berishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. «Bozor munosabatlariga o‘tishning ilk davrida biz oldindan butun aholini ijtimoiy himoyalash yo‘lidan bordik. Bu chora-tadbirlar odamlarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o‘ynadi. Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlab qolish omili bo‘ldi»<sup>18</sup>

Jamiyatning rivojlanishida kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi muhim rol o‘ynaydi. Kishilarning qobiliyatiga qarab mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida turli kasblar bilan shug‘ullanadigan qator toifalar, guruhlar, qatlamlar va sinflar vujudga keladi. Ular jamiyat strukturasi o‘ziga xos o‘rinni egallaydilar; jamiyat taraqqiyotiga muayyan xissa qo‘shadilar.

Sotsial stratifikatsiya aholining ierarxik mavqyeiga mos ravishda ijtimoiy qatlamlarga bo‘linishidir. Ijtimoiy stratifikatsiya oliy va quyi qatlamlar mavjudligini, huquq va imtiyozlarning tengsizligini, mas'uliyat va burch tengsizligini e'tirof etadi. Ijtimoiy stratifikatsiyaning konkret shakllari nihoyatda xilma-xildir.

---

<sup>17</sup> И.А.Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.-Б. 212.

<sup>18</sup> И.А.Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.-Б. 218.

Agar jamiyat a'zolarining iqtisodiy maqomi turlicha bo'lsa, mulkdor va mulksizlar mavjud bo'lsa, jamiyat qanday shaklda tashkil etilishidan qat'i nazar uning iqtisodiy tabaqalanishi murqarrardir. Agar biron bir guruh ichida mansab va obro'ga, unvon va lavozimiga qarab turli ierarxik rang (daraja) mavjud bo'lsa, bu guruhning siyosiy differentsiallashtirilganligidan dalolat beradi. Agar jamiyat a'zolari o'z faoliyat turiga qarab turli guruhlarga bo'lingan bo'lsa, ayrim kasblar boshqalariga nisbatan qadrliroq bo'lsa, professional guruh a'zolari rahbarlar va itoat qiluvchilarga bo'lingan bo'lsa, bunday guruh professional differentsiallashtirilgan. Ijtimoiy stratifikatsiya iqtisodiy, siyosiy va professional shakllardan tashkil topadi. Barcha a'zolari har jihatdan teng bo'lgan ijtimoiy guruh, hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi. Ijtimoiy stratifikatsiya - har qanday uyushgan jamiyatning doimiy tavsifidir.

Har bir ijtimoiy struktura bo'sh joyda vujudga kelmaydi: balki ilgari mavjud bo'lgan ijtimoiy struktura negiziga yangilik kiritish orqali vujudga keladi. O'tmishda mavjud bo'lgan va bugungi kundagi mavjud ijtimoiy struktura o'rtasida tarixiy aloqadorlik mavjuddir. Ana shu bog'liqlik insoniyat jamiyati rivojlanishining yagona jarayon sifatida ro'y berishini taqozo etadi.

Tarix takrorlanmaydigan faktlarni o'rganadi. Shu boisdan ham fatalizm nazariyotchilarining voqeya, hodisalar, faktlarning albatta oldindan - belgilanganligi to'g'risidagi fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Insoniyat tarixiga faqat takrorlanmaydigan hodisalargina kiradi. Tarixiy davrlar individual hodisalarni namoyon etadi. Falsafada jamiyat taraqqiyotining mezonini nima, degan masalada turlicha qarash va nazariyalar vujudga keldi.

K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'ladi; barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirdi. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirdi va bu ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy revolyusiyani amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etdi. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning biryoqlama va xato ekanligini ko'rsatdi. Jamiyat taraqqiyoti ko'p

bosqichli jarayon ekanligi to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surildi. Bunday qarashga ko'ra jamiyat taraqqiyotini agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratildi. Adabiyotlarda jamiyat rivojlanishiga sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos tomonlarini saqlab qolgan holda boshqa xalqlarning tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish usullari milliy g'oya va mafkurada o'z ifodasini topadi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirish, xususiy mulkchilikni qo'llab-quvvatlash, taraqqiy etgan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar qurish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, chet mamlakatlar bilan ilmiy, madaniy va texnikaviy hamkorlikning milliy manfaatlar yo'lida xizmat qilishi milliy g'oya va mafkuraning mohiyatidan kelib chiqadi. Milliy mafkura o'zida jamiyat a'zolarining ezgu orzu-umidlarini, maqsadlarini ifodalaydi; ularning mehnat faolligi, ijtimoiy-siyosiy aktivligini oshiradi, jamiyatni takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Jamiyatning moddiy hayotiga:

- kishilarning yashashlari, shaxs sifatida kamol topishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi;
- moddiy boyliklar, tabiiy zahiralar kiradi.

Jamiyatning moddiy hayoti kishilar uchun tirikchilik ne'matlari, vositalari yaratishga qaratilgandir. U kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga imkon

beradi. Moddiy ishlab chiqarishda jismoniy mehnat kishisi asosiy rol o'ynaydi. To'g'ri, bu sohada aqliy mehnat kishilari, (injener, agronom, zootexnik, rahbarlar va h.k.) ham faoliyat ko'rsatadi, biroq yetakchi mavqeyi jismoniy mehnat xodimlari egallaydilar. «Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish - bu sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir<sup>19</sup>.» Moddiy ishlab chiqarishsiz jamiyat hayotining normal tabiiy rivojlanishini hatto tasavvur etib bo'lmaydi. Biroq moddiy soha ahamiyatini haddan tashqari bo'rttirish, butun e'tiborni moddiy ishlab chiqarishga qaratish ham jamiyatni ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, hozirgi paytda tovar ishlab chiqarishga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasi foydaliroq bo'lib qolyapti. D. Bell, 3. Bzejnskiy singari g'arb olimlari o'z tadqiqotlarida postindustrial jamiyatda moddiy ishlab chiqarishning ahamiyati tobora kamayib borishini ko'rsatyaptilar.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini bir-biridan farqlash ijtimoiy hayot mohiyatini chuqurroq bilishga imkon beradi. Aslida real hayotda ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Ilmiy iazariya va amaliyotda jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini bir-biridan ajratish, ulardan birini muhimroq, boshqasini nomuhim deb hisoblash jamiyatning tabiiy-tarixiy rivojlanishini izdan chiqaradi.

Jamiyatning ma'naviy-intellektual taraqqiyoti uchun iqtisodiy zamin yaratish qanchalik muhim bo'lsa, moddiy farovonlikni ta'minlash uchun ma'naviy-intellektual salohiyatni kuchaytirish ham shunchalik muhimdir

Jamiyatning rivojlanishida kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi muhim rol o'ynaydi. Kishilarning qobiliyatiga qarab mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi

---

<sup>19</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T. «O'zbekiston», 2000.– B. 31.

natijasida turli kasblar bilan shug'ullanadigan qator toifalar, guruhlar, qatlamlar va sinflar vujudga keladi. Ular jamiyat strukturasi o'ziga xos o'rinni egallaydilar; jamiyat taraqqiyotiga muayyan xissa qo'shadilar.

Sotsial stratifikatsiya aholining ierarxik mavqeyiga mos ravishda ijtimoiy qatlamlarga bo'linishidir. Ijtimoiy stratifikatsiya oliy va quyi qatlamlar mavjudligini, huquq va imtiyozlarning tengsizligini, mas'uliyat va burch tengsizligini e'tirof etadi. Ijtimoiy stratifikatsiyaning konkret shakllari nihoyatda xilma-xildir.

Agar jamiyat a'zolarining iqtisodiy statusi turlicha bo'lsa, mulkdor va mulksizlar mavjud bo'lsa, jamiyat qanday shaklda tashkil etilishidan qat'i nazar uning iqtisodiy tabaqalanishi murqarrardir. Agar biron bir guruh ichida mansab va obro'oiga, unvon va lavozimiga qarab turli ierarxik rang (daraja) mavjud bo'lsa, bu guruhning siyosiy differensiallashganligidan dalolat beradi. Agar jamiyat a'zolari o'z faoliyat turiga qarab turli guruhlariga bo'lingan bo'lsa, ayrim kasblar boshqalariga nisbatan qadrliroq bo'lsa, professional guruh a'zolari rahbarlar va itoat qiluvchilarga bo'lingan bo'lsa, bunday guruh professional differensiallashgandir. Ijtimoiy stratifikatsiya iqtisodiy, siyosiy va professional shakllardan tashkil topadi. Barcha a'zolari har jihatdan teng bo'lgan ijtimoiy guruh, hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi. Ijtimoiy stratifikatsiya - har qanday uyushgan jamiyatning doimiy tavsifidir.

Uzoq yillar davomida shakllangan iqtisodiy strukturada tub o'zgarishlarni zudlik bilan qisqa vaqt ichida amalga oshirishning salbiy oqibatlari oldini olishga va puxta o'ylangan strategik rejalarni amalga oshirishga alohida e'tibor berildi. Isloxlarni amalga oshirish milliy manfaatlar uchun xizmat qilishi zarurligi odamlar isloxlari uchun emas, balki isloxlari odamlar uchun xizmat qilishi zarurligi e'tiborga olindi. Islohatlar amalga aksariyat qismi iqtisodiy jihatdan nochor ahvolda bo'lib, mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi jarayonida aholining ikki toifaga ajralishi xaddan tashqari boyib va qashshoqlashib ketishlar muqarrar ravishda turli

noroziliklar va ijtimoiy larzalarny keltirib chiqarishi mumkin edi. Ana shularni hisobga olib, I. A. Karimov bozor munosabatlariga o'tish sifatida ahvolini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan kuchli siyosat g'oyasini ilgari surdi.

Bozor munosabatlarini amalga oshirish bir necha bosqichlardan iborat qilibbelgilandi. Har bir bosqichda ma'lum iqtisodiy tadbirlar amalga oshirildi. Bular :

- mulkni xususiylashtirish;
- mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi;
- mulkning xilmalar xil shakllarini vujudga keltirish;
- agrar isloxlarni amalga oshirish;
- milliy valyutani muomalaga kiritish;
- yangi iqtisodiy infrastukturaning yaratilishi;
- rivojlangan mamlakatlar bilan xamqorlikda qo'shma korxonalarining barpo etilishi;
- innovatsiya siyosatini amalga oshirish;
- xorijiy investitsiya, texnika va texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish va boshqalar.

Hullas bozor munosabatlariga o'tishning madaniy- sivilizatsiyali xarakterga ega ekanligi O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muhim xususiyatidir. «Chinakam sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari.bozor vositalari faqat yuksak ma'naviyat, yuksak axloqiylik, vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin». Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va bozor munosabatlarini shakllantirishda respublikamizning holati, imkoniyatlaridan kelib chiqib, islohatlarning maqsadi halq va davlatmunosabatlari tomon yo'naltirildi.

### **I.3. Ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy strukturaga mulkiy munosabatlar nuqtai nazardan yondoshuv**

XIX asrga qadar falsafiy qarashlarda ijtimoiy falsafaga doir ikki muammo o‘z yechimini topgan.

1. Jamiyatni, uning tarkibini falsafiy tahlil etish.
2. Jamiyat tarixini falsafiy anglash

Platonning xayoliy (utopik) davlatida jamiyat uchun zaruriy ishlar maxsus kasbga ega bo‘lgan kishilar o‘rtasida taqsimlangan bo‘lib, ular yaxlit garmonik birlikni tashkil etadi.

Mehnatning taqsimlanishida Platon o‘z davridagi zamonaviy davlat tuzumining zaminini ko‘radi.

Kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun boshqa mamlakatlardan zaruriy oziqovqatlarni, kiyim-kechaklarni olib kelish va ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan. Ideal davlat tepasida sof va abadiy goyalarni kuzatuvchi faylasuf — donishmandlar turadi. Ularni harbiylar ximoya qiladi. Barcha hayotiy manbalarni erkin dehqonlar va hunarmandlar ta'minlab turadi.

Faylasuflar va harbiylar hech qanday xususiy mulkka ega bo‘lmaydilar. Agar ular oltin va kumushlarni saqlasalar, ayovsiz ravishda qattiq jazoga tortiladilar.

Mulkchilik — dehqonlar va hunarmanddarning imtiyozlari. Bu imtiyozlar ularga xalaqit bermaydi, biroq oliy maqsadlarni ko‘zlaydigan faylasuflar uchun u o‘ta halokatlidir. Platonning ideal davlatida alohida yashovchi oilalar bo‘lmaydi, balki birlashgan nikohlar bo‘lib, tug‘ilgan bolalar jamiyat hisobiga tarbiyalanadi. Ularning umumiy ota-onalari davlat hisoblanadi. Bolalar yoshligidanoq davlatga sodiq bo‘ladilar.

Aristokratik nuqtai nazarni himoya qdgab kelgan Platon bu muammoni hal etishda birmuncha yumshoqroq shart qo‘yadi.

Uning bu shartiga ko‘ra: inson kelib chiqishi jihatidan qaysi tabaqaga taalluqli ekanligi muhim emas va uning ma'naviy va aqliy xususiyatlari o‘rtasida

hyech qanday bogliqpik bo'lmaydi. Oliy va ma'naviy, aqliy qobiliyatli inson kuyi tabaqadan kelib chiqishi mumkin va aksincha, erkak va ayol yuqori tabaqata mansub bo'lsalarda, lekyn ulardan tug'ilgan bola quyi tabaqaga mansub bo'lishi mumkin. Shuning uchun hokimlarning vazifalari tug'ilgan bolaning ma'naviy qobiliyatini aniqlash va bolani mazkur uch tabaqadan qay biriga tegishli ekanligini belgalab, o'sha tabaqaga topshirishi lozim. Biroq Platon orzu qilgan ideal davlat tuzumi amalga oshmaydigan, xayoliy davlat tuzumi bo'lib, buyuk xayolparastlarning mulki bo'lib qolgan.

Platonning fikricha, mukammal davlat to'rtta asosiy shon-shavkatga: donolik, qahramonlik, tiyuvchi me'yori va adolatlilik fazilatlariga ega bo'lmog'i lozim.

Platonning fikricha, donolik bu oliy ilm yoki umuman davlat haqida gap borganda yaxshi maslahat berishga qodir kishining oqilligidir.

Qahramonlik donolik kabi tor doiradagi guruhga taalluqli xususiyat, biroq qahramonlik xususiyatiga ega bo'lgan kishilar donolarga nisbatan ko'proq bo'ladilar.

O'z-o'zini tiya bilish me'yori bu alohida tabaqaning sifati bo'lmasdan, balki odil jamiyatning barcha ozod kishilarga xos xususiyatdir. O'z-o'zini tiya bilish me'yori hukm surgan yerda jamiyatning barcha a'zolari odil jamiyatdagi qonunlarga, hokimiyatga bo'ysunadilar va o'zlarini ahmoqona xatti-harakatlardan tiyadilar.

O'z-o'zini tiya bilish me'yori jamiyatdagi yaxshi va yomon tomonlarni uyg'un birlikka olib keladi, deb yozgan faylasuf. Davlatda adolatning mavjud bo'lishi, uning g'alaba qozonishi o'z-o'zini tiya bilish me'yori tufayli yuzaga keladi. Adolat tufayli har bir ijtimoiy guruh, har bir inson o'zining muhim ishini amalga oshirishi mumkin.

Agarda hunarmand yoki sanoatchi boyigach, ularda harbiy ishni bajarish ishtiyoqi tug'ilsa, Platon bunga qat'iy qarshi chiqadi. Chunki bu xatgi harakat jamiyatda noittifoqlikni keltirib chiqarishi mumkin.



Platon uchun davlat adolatni yuzaga keltiruvchi jabha bo'libgina qolmasdan, balki davlat makrodunyo bo'lib, unga monand keladigan mikro dunyo esa har bir kishida, xususan, uning qalbida joylashgan bo'ladi. Platonning fikricha, inson qalbida uchta turli ibtido uytunlik jihatidan birlashgan bo'lmog'i lozim. 1. Oqillik. 2. Affekktivlik. 3. Aqlsizlik yoki ehtiyojni qondirish va lazzatlanshshyung do'sti.

Odil davlatda uchta guruh mavjud bo'lib, ular — hokimlik, faylasuf-donishmandlar, harbiylar va noz-ne'matni yaratuvchilar oqil sinf rahbarligida yaxlit inoqlikni tashkil etadi.

Aristotel, mukammal davlatni xususiy mulkchilikni bekor qilish bilan qurib bo'lmaydi, chunki umumiy ishni barcha bir-biriga ag'daradi va barchaga taalluqli umumiy narsaga juda kam qayg'uradi, degan xulosaga keladi. Aristotelning fikricha, ijtimoiy zulmning manbai mulkchilikda bo'lmasdan, balki inson xohishining cheki yo'qligi va uning ochko'zligidir. Shuni aytish kerakki, ochko'zlik obro'ga ham yo'naltirilgan. Shuning uchun fuqarolarning xohishlarini tenglashtirish kerak, degani mulkni ham tenglashtirish kerak, degan gap emas. Platonning ideal davlatini qurish mumkin emas. «O'z xohishiga ko'ra, davlat rejasini tuzish yaxsh, lekin amalga oshirib bo'lmaydigan fikr to'g'risida fikrlash mumkin emas».

Faylasufning ta'kidlashicha, eng yaxshi davlat baxtlidir. Eng yaxshi davlat bu yangi, yaxshi siyosiy tuzumdir. Davlat boshqaruvining eng yaxshi shakli uning eng yaxshi hayoti uchun xizmat qilishidir. Eng yaxshi hayot baxtli hayotdir. Hayot fazilatlarga, qudratga to'la va bu fazilatlarni hayotning barcha voqyealariga to'g'ri qo'llay bilish kerak. Fazilat ikki qutbning mo'tadilligidir, mo'tadil hayot esa zaruriydir. Biroq baxtli hayot uchun ma'naviy farovonliqsan tashqari jismoniy farovonlik, ya'ni sog'lik va tashqi farovonlik ham darkorligi bilan birgaliqsa tashqi go'zallik ham mo'tadil bo'lmog'i lozim.

Eng asosiysi — fuqarolar tashvishlardan ozod bo'lishlari kerak. Qonun chiqaruvchilar esa dastavval o'z diqqat-e'tiborlarini faqat jamiyatning nufuzli

qismi bo‘lmish davlat rahbarlariga qaratibgina qolmay, balki xususiy hayot kechirish holatiga ega bo‘lsinlar va hych kim ularning dam olishlarini buzmasin. Mulkchilikning eng oliy shakli mo‘tadillikdir. Davlatning eng oliy baxti uning fuqarolarining o‘rtacha mulkka ega bo‘lishlaridir, deydi Aristotel. Bunday mulkka ega bo‘lgan kishi oqilona fikr yuritadi. Bir qarashda Aristotelning ijtimoiy qarashlari xalqchilikka o‘xshab ketadi. Biroq unday emas. Aristotel davlatni muxim va nomuxim qismlarga ajratadi va bundan kelib chiqqan hodda o‘rta tabaqaga mansub kishilarni ko‘pgana fuqarolik huquqlaridan maxrum etadi.

Aristotel zaruriy, lekin muxim bo‘lmagan davlat qismlariga barcha mehnatkashlarni, muhim qismiga harbiylar va davlat rahbarlarini kiritadi. Dexqonlar, hunarmandlar va barcha savdogarlar tabaqasi har bir davlatning tarkibiga kirishi zarur. Lekin uning muhim qismlari harbiylar va kengash a'zolaridir, deydi Aristotel. Eng yaxshi siyosiy tuzumdan foydalanayotgan davlat hunarmandning fuqaro bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi, chunki dehqonchilik, hunarmandlik hayot uchun zaruriy hunarlardir, lekin ular bu fazilatdan maxrumdir. Fuqarolar va hunarmandlar kasbkorlik bilan shug‘ullanmasliklari kerak, chunki bunday hayot sharaflidir emas va u fazilatlar manfaatiga qarama-qarshidir. Eng yaxshi davlatning fuqarolari, shuningdek, dehqon bo‘lishlari lozim emas. Ular o‘zlariga tegashli fazilatlarni rivojlantirish, falsafa bilan shug‘ullanish hamda siyosiy faoliyatlarini amalga oshirish uchun ularga ortiqcha vaqt zarurdir.

Aristotelning fikricha, odamlar tabiatan teng emaslar. Qul bilan quldor bamisoli hayvon bilan insondir. Birinchisi jismoniy mehnatga tug‘ilgan bo‘lib, bironlarning istak-irodasini amalga oshiradi. Ular oqillikni tushunadilar, lekin o‘zlari aqpgga ega emaslar. Ular jonli mulk va xo‘jayinning quroli. Qullarga ega bo‘lishlik, bu go‘yoki urush yoki ov haqidagi fandır. Ovchilik harbiy ishning bir qismi bo‘lib, maqsadi yovvoyi jonivorlarni va tabiatan boshqalarga

bo'ysunadigan kishilarni (qullarni) ovlashdan iboratdir. Bunday urush adolatlidir, deydi Aristotel.

Shunday qilib, «Eng yaxshi davlatning fuqarolari nainki hunarmandchilik, biron-bir kasb, dehqonchilik bilan shug'ullanishlari u yoqda tursin, balki umuman jismoniy mehnatdan holi bo'lishlari zarur. Fuqarolar quldor bo'la turib, qul hisobiga yashab, falsafa bilan shug'ullanishga, bo'sh vaqtga ega bo'lib, o'z fazilatlarini rivojlantiradilar. Shuningdek, ular o'zlarining fuqarolik burchlarini bajaradilar. Armiyada xizmat qiladilar, kengashlarda qatnashadilar, sud idoralarida sudlashadilar, ibodatxonalarda xudolarga ibodat qiladilar. Xo'jayin esa qul nimani bajara olishini, buyruq berishni bilmoga shart. Shuning uchun boyligi yetarli oila, iker-chikirlarga qaram bo'lib qolmasdan turmushning mayda-chuyda ishlariga aralashmagan holda, bu ishni bajaruvchilarga topshirib, o'zlari esa davlat ishlari yoki falsafa bilan shug'ullanishlari lozim».

Fuqarolar mulki garchand teng bo'lmasada, lekin ularning o'rtasida o'ta boy va o'ta kambag'ali yo'q. Butun ellin davlatlariga tarqalgan eng yaxshi siyosiy tuzum ularni bitga yaxlit siyosiy tizimga birlashishiga imkon yaratib, butun dunyoda hukmron bo'lishlarini ta'minlay oladi. Tabiat barcha boshqa xalqlarni qullik uchun vahshiy qilib yaratgan. Shuning uchun ular qullikda yashashlari kerak. Ular ellinliklarning ijtimoiy va xususiy yerlarida ishlashlari maqsadga muvofiqdir. Ular bu ishlarni umumiylik, farovonlik uchun hamda o'zlari uchun bajaradilar.

Aristotelning ijtimoiy-siyosiy qarashlari nihoyatda ulkan nazariy va shuningdek, katta tarixiy qiymatga ega. Uning ideal davlat to'g'risidagi ixcham loyihasi har qanday xayoliy davlat kabi uydirma, xayoliy xususiyatlarning real jamiyatning tarixiy munosabatlarini aks etgaruvchi qorishmasidan iborat bo'lgan.

Aristotelning «Siyosat» asarini ajralib turadigan xususiyati shundaki, unda real tarixiy sezgarlik, xayoliy taxminlardan ustun turadi.

Aristotel ijtimoiy qarashlarining jon va tana dualizmi quyidagi ko‘rinishga ega: Aristotelning ijtimoiysiyosiy qarashlari va ayniqsa, uning ideal davlat haqidagi nazariyasi uning vatandoshlari tomonidan rivojlantirilibgina qolmasdan, balki o‘rta asr o‘rtaosiyolik mutafakkirlar, birinchi navbatda, Abu Nasr Forobiyning ideal jamoaning fozil kishilari to‘g‘risidagi qarashlarida, shuningdek, XVI—XVII asrlarda Rarbiy yevropada yashab ijod qilgan mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga xam katga ta'sir ko'rsatgan va o'chmas iz qoldirgan.

Ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679 yillar), fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo (1712-1778 yillar), Sen Simon (1760-1826 yillar); ingliz olimlari Adam Smit va David Rikardo jamiyat, uning tarkibi haqidagi ilmiy bilimlarni ilgari surdilar. Masalan, Jan Jak Russo «Odamlar o‘rtasidagi tengsizlikning kelib chiqishi va uning sabablari haqidagi mulohazalar» asarida mulkiy tengsizlik, jamiyatning boy va qashshoqlarga bo‘linishi ijtimoiy tengsizlikning birinchi bosqichidir deb hisoblaydi. Ikkinchi bosqich davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Uchinchi bosqichda hokimiyat zulm va adolatsizlik hokimiyatiga aylanadi, deb tahlil etish asosida ideal jamiyat g‘oyasini ilgari suradi<sup>20</sup>.

Ijtimoiy falsafaning mustaqil ilm sohasiga aylanishida olimlar Gegel, Marks, Kont, Spenserlarning o‘ziga xos o‘rinlari bor.

Vilgelm Fridrix Gegel (1770-1831 yillar) nemis klassik falsafasining yirik namoyondasi. U o‘zining «Rux fonomenlogiyasi», «Tarix falsafasi» asarlarida jamiyatni falsafiy anglashning yaxlit tizimini ishlab chiqdi. U jamiyat tarixining, undagi tarixiy jarayonlarning mohiyati, umuman jamiyat, uning tarkibiy tizilishi, fuqarolik jamiyati, davlatni boshqarish usuli, axloq, oila haqidagi chuqur tahlilga asoslangan falsafiy fikrlarni ilgari surdi.

Gegel ijtimoiy falsafani fan darajasiga ko‘tardi.

Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va taraqqiyoti K.Marks nomi bilan bevosita bog‘liq. U jamiyatga materialistik yondoshish asosida o‘ziga xos

---

<sup>20</sup> Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. I-қисм.— Тошкент: 2004.—Б.264.

ta'limot - jamiyat falsafasi – (tarixiy materializm) ta'limotini ishlab chiqdi. U jamiyatni murakkab tarkibiy tizilishga ega ijtimoiy organizm sifatida ta'rifladi. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti tabiiy – tarixiy jarayon bo'lib, u to'g'ri chiziqli tarzda bir formatsiyadan ikkinchisiga o'tib boradi. Marksning kommunizm to'g'risidagi qarashlari xristianlik dini muhitida va xayoliy sotsialistlar ta'sirida shakllanganligini e'tibordan soqit qilmaslik darkor.

Ma'lumki, xristianlikka o'tish «Bibiliya»da uch bosqichli etib ko'rsatiladi. Birinchi bosqichda odam xudodan va do'zax azoblaridan qo'rqqani uchun qullardek, shunchaki bir dinga e'tiqod qiladi. Ikkinchi bosqichda esa xudoga yalinib-yolvorib, o'z taqdirini yaxshilashni iltimos etadi. Uchinchi bosqichda «Injil»dagi g'oyalar uning ongi va qalbidan mustahkam o'rin olib, muqaddas ruh qaror topgach, individ erkin ravishda diniy ibodatlar, rasm-rusumlar, urf-odatlarni bajaradi. K.Marks ham jamiyat taraqqiyotini shunga o'xshash tarzida tasavvur etib, odamzod quldorlik jamiyatida quldordan qo'rqib, feodal va kapitalistik jamiyatlarda mulkdorlarga yalinib-yolvorib hayot kechiradi. Kommunizm esa erkin mehnatkashlar jamoasi shakllanib, ular sinfsiz va davlatsiz jamiyatda farovon turmush kechirishlarini «bashorat» qiladi.

Ma'lumki, olimlar, faylasuflar azal-azaldan tenglik, adolat, erk, ozodlik, farovonlik qaror topgan ideal jamiyatni orzu qilganlar va bunday jamiyatga erishishning yo'llari haqidagi turli-tuman qarashlarni ilgari surganlar. Xristianlikdagi haloskorning kelishi va zolimlarning jazolanishi haqidagi g'oyalar ruhida tarbiyalangan Ovrupo aholisi orasida marksizm keng tarqalib, Rossiyada u o'zining takomilini topdi. Bolshevizm bu mamlaktda pravoslaviyening dunyoviy ko'rinishidagi dinga aylandi. Agar xristianlikda xristianlar chin insonlar sanalib, yerelar – dindan qaytganlar g'ayriinsonlar, ularni jazolash savob hisoblangan bo'lsa, marksizmda mulkdorlar g'ayriinsoniyalar, mulksizlar esa chin insonlar sirasiga kiritildi. Binobarin chinakam insoniy jamiyat shakllanishi uchun mulkdor sinflarni qatliom etish

qonuniy jarayon sifatida talqin etildi. Bu hol marksizmning jamiyat to'g'risidagi ta'limotining qadrsizlanishiga olib keldi.

Markscha falsafada xalq ommasi tarixni yaratuvchi kuch sifatida ko'rsatilgani ma'lum. Lekin bu yaratuvchilik, markscha falsafa nuqtai nazarida, demokratiya, qonunchilik, adolat, tenglik, tenghuquqlik, oshkoralik, fikrlar turli-tumanligi sharoitida amalga oshadigan ijodiy, manfaatli mehnat emas, balki yuqoridan berilgan buyruqlarni, hukmron yakka partiyaning mavhum rejalarini ko'zini yumib, quloqni kar qilib bajarishdan iborat, deb talqin etildi. Sovet tuzumi davrida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida, madaniy hayotida ko'plab ishlar qilingani ma'lum. Bular hammasi xalqning mehnati bilan bajarildi. Lekin bu ishlarning asosida muayyan manfaat bilan bog'langan ongli mehnat emas, balki siyosat darajasiga ko'tarilgan ommaviy tashabbuslar, majburiy mehnat yotganini ham inkor etib bo'lmaydi. Ochig'ini aytganda, turg'un iqtisodiy munosabatlarga, siyosiy, mafkuraviy tazyiqqa asoslangan sovet totalitar tuzumi ommaning ijodiy yaratuvchilik faoliyatini kuchaytirmadi, balki susaytirib yubordi.

Odamlarning mehnatga, mulkchilik shakllariga bo'lgan munosabatida, bu boradagi tajriba, an'ana va malakalarida chuqur deformatsiya yuz berdi.

Mamlakatda ketma-ket bo'lib turgan iqtisodiy o'pirilishlar, qo'shib yozishlar, xalqning moddiy turmush sharoitlari tobora yomonlashib borishi odamlar manfaatdorlikni anglab, ijodiy mehnat qilish imkonidan mahrum bo'lib qolganining oqibatidir. Natijada, 80-yillarning oxiriga kelib mamlakatdagi vaziyat nihoyatda og'irlashdi.

Mulkchilik munosabatlari masalasi ham markscha falsafada tarixiy taraqqiyot saboqlaridan ajralgan holda tahlil etildi. Mulkchilikning turli shakllariga, ularning imkoniyatlariga aqidaparastlarcha yondashish sotsialistik jamiyatni kuchli inqirozga olib kelgan sabablardandir.

Sotsialistik mulkchilikning ahamiyati va imkoniyatlarini mutlaqlashtirish, xususiy mulkchilikni cheklash va chegaralash jamiyatning

iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etdi. Odamlarda mehnat mahsulotidan, uning sifatidan manfaatdorlik bilan bog'liq bo'lgan intilishlar kuchaymadi.

Mehnat unumdorligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati tobora pasayib bordi. Natijada, katta xomashyo zaxiralariga, arzon ishchi kuchiga ega bo'lgan mamlakat jahon bozoridagi raqobatga bardosh bera olmay qoldi. Davlat mulkiga aylantirilgan korxonalarda son ketidan quvib, sifatiga e'tibor bermay quyildi. Bu ham korxonalar ishchilari ko'r-ko'rona rejani bajarishga intilib, mahsulotning sifatiga, texnika, texnologiya, xomashyodan unumli foydalanish masalalariga e'tibor bermay qo'yganining oqibati bo'ldi. Sanoat ishchilari va mutaxassislarida ham davlat mulkiga nisbatan tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish mas'uliyati shakllanmadi. Kolxoz mulki jamoa mulki deb e'lon qilingan bo'lsa ham, butun sovet tuzumida birorta kolxozchida jamoa mulki mening ham mulkim, degan tushuncha shakllanmadi.

Xususiy mulkchilikning barcha shakllari cheklanishi va ta'qiqlanishi jamiyatdagi iqtisodiy qiyinchiliklarni yana ham og'irlashtirib yubordi. Xususiy mulkchilik, tadbirkorlik va ishbilarmonlik cheklanishi inson omilining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ham zaiflashtirdi. Manfaatsiz qilingan mehnat biror yerda ham samara bermadi. Siyosiy shiorlar asosida tashkil etilgan «staxanovchilik», «yuz sentnerchilik» harakatlari ham uzoq samara bermay, keng ko'lamlilik ko'zbuyamachiliklarga yo'l ochdi. Natijada, respublikalar, korxonalar, kolxozlar va sovxozlar ketma-ket g'alaba raportlari berib tursalar ham, mamlakatning iqtisodiy ahvoli, mehnatkashlarning turmush sharoitlari tobora og'irlashib bordi. Bunday vaziyat jamoa mulkiga asoslangan sotsialistik taraqqiyot yo'liga o'tib olgan barcha mamlakatlarda yuz berdi.

Sovet totalitar tuzumi yemirilganidan keyin ayrim sotsialistik mamlakatlar o'z iqtisodiy siyosatlarida sezilarli burilish yasadi. Xitoy Xalq Respublikasida, asosan, jamoa mulkchilik saqlanib qolsa ham, ma'lum

sohalarda xususiy mulkchilikka, ishbilarmonlik va tadbirkorlikka, horijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishiga yo‘l ochib berilishi og‘ir iqtisodiy bo‘hronning bir qadar oldini olishga imkon berdi.

Qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar muammosi talqini ham asosan jamiyatdagi sinfiy, siyosiy, mafkuraviy kurashlar bilan bog‘landi. Antagonistik qarama-qarshiliklarni bo‘rttirish, ularni murosasiz siyosiy kuchlar o‘rtasidagi munosabatlarning ifodasi sifatida talqin etish jamiyat hayotining mohiyati va taraqqiyoti sabablarini noto‘g‘ri tushuntirishga olib keldi. Qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatlar muqarrar to‘qnashuvlarga, inqilobiy to‘ntarishlarga olib keladi, degan g‘oya sinflar, turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar o‘rtasidagi ixtiloflarni sun‘iy ravishda kuchaytirishga, ularni qonli ixtiloflarga tomon burib yuborishga yo‘l ochdi. Ijtimoiy ziddiyatlarni hal etishda, konsesus (kelishish, murosayu-madora) yo‘lining imkoniyatlari kamsitildi, yoki butunlay inkor etildi. Natijada, jamiyat taraqqiyotining mohiyati va imkoniyatlari haspo‘shlandi. Insoniyatning hozirgi taraqqiyoti, mustaqil O‘zbekistonda tadrijiy yo‘l bilan amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar antagonistik ziddiyatlarni keskinlashtirish, inqilobiy sakrashlarni amalga oshirish yo‘li bilangina jamiyatning ilgarilama rivojlanishini ta‘minlash mumkin, degan fikrlar butunlay xato ekanini ko‘rsatmoqda. Hozirgi taraqqiyot yo‘li turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o‘rtasidagi tafovutlarni bo‘rttirmaslik, ularni keskin sinfiy kurashga emas, balki murosaga, birlashib, xolislik bilan, insonparvarlik qadriyatlariga tayanib, mavjud ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal etishga chorlashdir. Qonli urushlardan, siyosiy ixtiloflardan charchagan insoniyat uchun bundan boshqa yo‘l yo‘q.

Jahon taraqqiyoti Marks bashorat qilgan yo‘ldan bormadi. Haloqatga mahkum deb topilgan kapitalistik jamiyat o‘zining ichki ziddiyatlarini tadrijiy yo‘l bilan barataraf etib, fan va texnika yutuqlariga tayanib, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyotning yangi bosqichiga



ko'tarildi. Kapitalizmning go'rkovi deb ta'riflangan ishchilar sinfi ham murosasiz ehtiroslar girdobiga botmay, kapitalistik jamiyat ichida o'zining siyosiy, iqtisodiy muammolarini hal etish imkoniga ega bo'ldi. Bashorat qilingan jahon inqilobi uchquni alangaga aylanmadi, balki asta-sekin so'nib bordi. Ayrim mamlakatlarda bo'lib turgan ish tashlashlar ham asosan iqtisodiy talablar doirasi bilan cheklanib, sog'lom va madaniy kurashlar shaklini oldi. Rivojlangan mamlakatlardagi davlat hokimiyati ham barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini mushtarak hal etish yo'lidan bormoqda. Demokratiya, inson huquqlarini himoya qilish ishlari ham tobora yaxshilanib, takomillashib bormoqda. Xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotning tez sur'atlarini ta'minlash, tenglik va teng huquqlikka asoslangan demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurish, kishilarning moddiy va ma'naviy turmush sharoitlarini tobora yaxshilab borish milliy ziddiyatlar va sinfiy ixtiloflarga asta-sekin barham berishi mumkinligini tarix saboqlari yana bir bor ko'rsatdi. Jahon tajribasining bu saboqlari hozir mustaqil

O'zbekistonda ham jiddiy, konkret sharoitlarni hisobga olib, amalga oshirilmoqda.

Marksizm asoschilari tomonidan jamiyat taraqqiyotining kapitalizm yemirilganidan keyin yuzaga keladigan eng ilg'or ijtimoiy shakli deb ta'riflangan totalitar siyosiy tuzum tarix sinovlaridan o'ta olmadi. Proletariat diktaturasi sifatida zo'rlik bilan o'rnatilgan, nihoyat, borib yakka partiya va cheksiz hokimiyatni o'z qo'lida to'plagan rahbarlarning diktaturasiga aylangan sovet tuzumi taqdiri jamiyat taraqqiyoti haqidagi markscha ta'limotning xato va biryoqlamaligini ko'rsatuvchi tarixiy dalildir.

Fransuz faylasufi Ogyust Kont (1798-1857 yillar) jamiyat haqida o'z ta'limotini yaratdi. U «Pozitiv falsafa» kursi (6 jildli) kitobida jamiyatni murakkab tuzilishga ega rivojlanib boruvchi organizm hisoblaydi. Uning fikricha, jamiyatni pozitiv ilmlar asosida qayta qurilishi mumkin.

Ijtimoiy falsafaning muammolari ingliz faylasufi va sotsiologi Gerbert Spenser (1820-1903 yillar) asarlarida o‘z yechimini topgan. Spenser «Ijtimoiy statistika», «Sotsiologiya asoslari» kitoblarida jamiyatga organik yondashuv g‘oyasini ishlab chiqdi. U jamiyat xuddi tirik organizm kabi faoliyat ko‘rsatadi, uning har bir elementi ma'lum funksiyalarni bajaradi, deb hisoblaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonuni, Spenser fikricha, eng moslashuvchan jamiyatlarning kurashidir.<sup>21</sup>

Gegelning ta'lim berishicha, ijtimoiy strukturaning tub asosini ma'naviy madaniyat tashkil etadi. Ma'naviy madaniyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ob'ektiv xarakterga ega bo‘lib, uning mavjudligi yoki amal qilishi ayrim individlarning xohish- irodasiga bog‘liq emasdir. Balki aksincha, har bir individ jamiyatga xos bo‘lgan ma'naviy madaniyat qadriyatlarini o‘zlashtiradi, madaniyat talablariga bo‘ysunadi. Agar ayrim kishilar ijtimoiy shartlangan madaniy qadriyatlarni tushunmasa va anglamasa, madaniy qadriyatlar unga nisbatan tashqi majbur qiluvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Gegelning fikricha, ma'naviy madaniyat «jahoniy aql» («mutlaq ruh») muqarrar va to‘xtovsiz ravishda amal qiladi.

Gegel faqat ma'naviy madaniyatgina jamiyatning bir butun sistema sifatida rivojlanishi uchun imkon beradi, deb hisobladi. U ayniqsa o‘ziga zamondosh bo‘lgan G‘arbiy yevropa madaniyatiga alohida e'tibor berdi. U ana shu madaniyatning keng yoyilishi, barcha qit'a va mamlakatlarniyg jipslashuviga, jahon hamjamiyatining qaror topishiga olib keladi, deb ta'kidladi.

Karl Marks ijtimoiy hayotning fundamental asosini iqtisodiy munosabatlarda ko‘rdi. U ijtimoiy hayot realliklaridan kelib chiqdi: sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan inson tabiatni faol o‘zlashtiruvchi va o‘zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ldi. Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarishning keng tarmoqlarini vujudga keltirdi.

---

<sup>21</sup> Каранг. Комусий луғат. – Т, «Шарк», 2004. – Б.377.

Ishlab chiqarish rivojlana boshladi; iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy hayotning zarur sohalaridan biri bo'lib qoldi. Marks ingliz iqtisodchilari: A.Smit va D. Rikardoning «iqtisodiy inson» g'oyasini bir yoqlama rivojlantirdi. Inson hamisha iqtisodiy manfaat, foydani ko'zlar ekan, barcha ijtimoiy munosabatlar asosida iqtisodiy munosabat hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb hisobladi.

Kontning fikricha, jamiyat individlarning oddiy majmuidan iborat emas: «ijtimoiy atomlar» ham emas, balki rivojlangan individlar uyushmasidir. Ijtimoiy sub'ektlarning o'zaro aloqadorligidir.

Kont fikricha, jamiyat garmoniyasi va barqarorlikning muhim sharti jamiyatda tabaqalar, xalq va shaxsning normal yashash imkoniyatidir. Jamiyat garmoniyasi va barqarorligi faqat fan yordamida hal etiladi. Fan jamiyatdagi barcha qism va uyushmalar o'rtasidagi munosabatlar mexanizmini yaratadi, ijtimoiy qatlam va shaxslararo manfaatlarni muvofiqlashtiradi.

O.Kontning ijtimoiy falsafaga oid qarashlari hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir. U jamiyatga yaxlit ijtimoiy sistema sifatida qaradi. Jamiyat rivojlanishining qonuniyatli va progressiv xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu jarayonda^ mehnat taqsimotining rivojlanishi, kishilarning siyosiy faolligi, fan va ma'naviy madaniyatning katta rol o'ynashini alohida ta'kidladi.

Kont tomonidan ilgari surilgan jamiyatning garmoniyali rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik omillari va ijtimoiy sub'ektlar manfaatlarini moslashtirish zarurligi to'g'risidagi g'oyalar bugun kun uchun ham ahamiyatlidir.

Kontning pozitiv ta'limotida falsafa, tabiiy va ijtimoiy fanlarning dalillaridan keng foydalanish, jamiyatga ijtimoiy organizm deb qarash yetakchi o'rinni egalladi.

Ijtimoiyfalsafiy ta'limot yaratishga ingliz olimi va faylasufi Gerbert Spenser (1820-1903) munosib hissa qo'shdi. U «Sintetik falsafa» asarida tabiiy va ijtimoiy hodisalarni sintetik asosda talqin etdi. Spenser yana

«Boshlang'ich asoslar», «Ilmiy-siyosiy va falsafiy tajribalar» kabi asarlarida jamiyatning organik nazariyasini yaratdi.

Unda jamiyat rivojlanishida biologik va ijtimoiylik tomonlarning o'zaro ta'sirini ko'rsatdi. Jamiyatga biologik va ijtimoiy omillarning yaxlit birligi sifatida qaradi. Jamiyatni ijtimoiy-tabiiy birlik sifatida ta'rifladi.

G.Spenser ham O.Kont singari jamiyatga muvozanat, garmoniya va barqarorlik zarurligini ta'kidladi. Ijtimoiy muvozanat deganda kishilar xatti-harakatining moslashuvini, ular manfaatlarining uyg'unlashuvini, ijtimoiy guruh va institutlar harakatida murosasozlik, o'zaro kelishuvlar bo'lishini nazarda tutdi. Ijtimoiy muvozanat kishilar va ijtimoiy institutlarning o'zaro aloqalarining tengligi sharoitida amal qiladi. Bu omil ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltiradi.

Spenserning fikricha, jamiyatning inqirozga yuz tutishi ijtimoiy muvozanat, garmoniya va ijtimoiy barqarorlikni istisno etadi. Jamiyatning inqirozi ( tanazzuli) Spenserning fikricha, davlat institutlari faoliyatining samarasizligi tufayli vujudga keladi. Hokimiyat, armiya, tashkilot institutlarning yaroqsizligi ham inqirozni yanada kuchaytiradi. Omma harakatiga ayrim shaxslar, siyosatchilar xalaqit beradilar, xarakatlarning birlashishi buzuladi, markazdan qochish tendensiyasi kuchayadi. Tartibsizlik sanoat va savdo tashkilotlarining faoliyatini izdan chiqaradi<sup>22</sup>. Spenserning ta'limoti hozirgi sharoitda katta ahamiyatga egadir. SSSR parchalangandan so'ng vujudga kelgan mustaqil respublikalardagi harakatlar bu g'oyaning hayotiy ekanligini tasdiqlamoqda. Pozitivizm falsafasi asoschilari O. Kont va G. Spenserning jamiyatdagi garmoniya va muvozanat ijtimoiy barqarorlikning asosidir, degan g'oyasi g'oyatda qimmatlidir. Pozitivizm ijtimoiy hayotning turli hodisalarini, ayniqsa, turli-tuman ijtimoiy institutlar strukturasi va barqarorligini tahlil qilishga alohida e'tibor berdi. Natijada ijtimoiy falsafiy tafakkurda strukturali

---

<sup>22</sup> q.: Спенсер Г. Система синтетической философии – М.1998. – С. 314

funksional tahlil oqimi vujudga keldi. Unga Amerakilik faylasuflar: T.Parsons (1902-1979) R.Merton (1910) asos soldilar.

Strukturali funksional tahlilda asosiy e'tiborni ijtimoiy sistema barqarorligiga, uning normal yashashiga qaratildi. Bu nazariya tarafdorlarinig fikricha, jamiyat o'zgaradi, inqirozga uchraydi, har hil ijtimoiy tashkilotlarning funksiyalari o'zgarib turadi.

Bu oqim ijtimoiy sistemadagi funksional tomonlarning paydo bo'lishini, adaptatsiya (moslashuv, ko'nikish) va maqsadga erishish, integratsiya birlashuv, qo'shilish, strukturani qayta tashkil etish, ijtimoiy keskinlikni yumshatish yo'llarini o'rganadi. Ijtimoiy garmoniya ijtimoiy kelishuvga qarama-qarshi bo'lgan muammolarni o'rganadi. Ijtimoiysistemani buzishga, inqirozga olib keladigan har qanday holatlarni tahlil etadi.

Darendorfning fikricha, ijtimoiy konfliktlar:

a) ijtimoiy sistemadagi muvozanat holatining buzilishini va shu jarayonda rivojlanishning ro'y berishini anglatadi.

b) chunki konfliktlar bo'lmasa, jamiyat inqirozga yuz tutadi.

## **II–bob. Strukturaviy yondoshuv va va mulkka egalik barqarorlik va taraqqiyot omili**

### **II.1. O‘zbekistonda ijtimoiy strukturaning o‘ziga xosligi**

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, har bir millatning davlatchilik xususiyatlari, turmush va tafakkur tarzi, turmush an'analari, urf-odatlarini, o‘zligini anglashi, betakror va noyob mintaliteti asosida qaror topadi.

Fuqarolik jamiyatining normativ jihati deganda fuqarolar va boshqa ijtimoiy sub'ektlarning faollik darajasi tushuniladi. Faol harakat, ayniqsa, ijtimoiy tizimlarning almashinuvi jarayoni g‘oyat kuchayadi. O‘zaro aloqalar markazida individlarning erkin va birodarlarcha uyushqoqlik holatlari yotadi.

Jamiyat strukturasi tashkil etuvchi elementlar bir-biri bilan uzviy aloqa va munosabatda bo‘ladi. Bu jamiyat iqtisodiy sohada : xususiy mayda korxonalar, turli kooperativlar, hissadorlik jamiyatlari, fuqarolarning shaxsiy tadbirkorligi, ishbilarmonligidan; ijtimoiy sohada: oila, o‘z-o‘zini boshqarish organlari, ko‘ppartiyaviylik, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy fikrni o‘rganuvchi nodavlat tashkilotlardan; ma'naviy sohada: nodavlat institutlar, ommaviy axborot vositalari (turlicha qarashlarni xolis, beg‘araz va erkin bayon etish erkinligi, jamiyat va hokimiyat o‘rtasidagi xolis vositachi bo‘lish, inson va jamiyat manfaatlarini faol va izchil himoya qilish, voqyea va hodisalarni professional mahorat bilan yoritish, bu sohadagi qonunchilik mexanizmiga amal qilish, nodavlat noshirlik va teleradio kanallari tashkil etish), ixtiyoriy ilmiy - ijodiy faoliyat, kasb- hunar va boshqa birlashmalardan tashkil topadi.

Mamlakatimizda taraqqiyot «o‘zbek modeli»ning tamoyillariga ko‘ra, bochqichma-bosqich amalga oshiriladi. U real milliy an'analar, turmush tarzi, yangicha falsafiy va siyosiy tafakkur xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Sharqda demokratik jarayonlar, jamiyatning tub negizlari asta-sekinlik bilan shakllangan va taraqqiy etgan. Sharq xalqlarining hayot va turmush tarzida keskin inqilobiy o‘zgarishlar rad etilgan. Sharq donishmandlari ijtimoiy jarayonlarga har qanday sun'iy aralashuvning mudxish oqibatlarini

ko'rsatganlar. Shuning uchun ham jamiyat hayotidagi barcha o'zgarishlar xalqlarning fikrlash tarzi, milliy an'analari, urf-odatlariga muvofiq ravishda tadrijiy ravishda ro'y bergan.

Jamiyatning ayrim elementlari va xususiyatlari qadim zamonlardayoq Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekiston xududida ham mavjud bo'lgan. Jamiyatda haqiqat va adolat, qat'iy tartib-intizom o'rnatilgan, inson hayoti, aholi tinchligi kafolatlangan, hurfikrlilik, turli e'tiqoddagi kishilarga nisbatan sabr-toqatlilik mavjud bo'lgan, ma'naviy madaniyat rivojlangan, dunyoviy ilm islom madaniyati bilan uyg'un ravishda taraqqiy etgan, ayniqsa, qarindosh-urug'chilik mugnosabatlari mustahkam axloq-odob me'yorlariga bo'ysungan, nodavlat tashkilotlar katta mavqyega ega bo'lgan.

Davlat fuqarolarning shaxsiy va maishiy hayotiga deyarli aralashmagan, savdo- sotiq, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, bilim olish, oila qurish hokimiyatga bog'liq bo'lmagan holda axloq-odob va milliy an'analar asosida rivojlangan. Fuqarolar turli kasb-hunar va diniy uyushmalarga birlashganlar va bir-birlariga o'zaro yordamlashganlar.

O'zbekistonda qaror topayotgan jamiyat xalqimizning ko'p asrlik tarixiy tajribasi, milliy an'analari, fikrlash tarzi va ma'naviy salohiyatiga, tinchlik va millatlararo totuvlikka asoslanadi». O'tish davrida «milliy manfaatlar va ehtiyojlar bundan buyon fuqarolik jamiyati...manfaati bilan yaqinlasha boradi»<sup>23</sup>

O'tish davri sharoitida O'zbekistonda ko'plab siyoiy partiyalar, ijtimoiy harakat, jamoat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar vujudga kelyapti. Bu - qonuniy jarayondir. «Fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan bir paytda O'zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etish lozim bo'lgan keng tarmoqli, ko'ppartiyali tizim kabi

---

<sup>23</sup>Каримов И. А. Ўзбекистон XXI Аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари -Т.: Ўзбекистон, 1997,- Б.75.

demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda»<sup>24</sup>.

I. A. Karimovning qator asarlarida o'tish davrida jamiyatimizning ijtimoiy- siyosiy strukturasi va ma'naviy qiyofasida ro'y beradigan tub sifatiy o'zgarishlar ilmiy- nazariy jihatdan tavsiflab berildi. Ularda ilgari surilgan xulosalar jamiyatimiz hayotida ro'y beradigan murakkab ijtimoiy- siyosiy va madaniy jarayonlarning mohiyati va rivojlanish tendensiyasini ilmiy-falsafiy jihatdan idrok etishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bozor munoabatlari sharoitida maxsulot sifati va samaradorligini yaxshilashning muhim qonuniyatlaridan biri raqobatli muxitni yaratish, kishilarda xo'jayinlik xissini shakllantirish, mehnat mahsuliga egalik qilish, shaxsiy manfaatdorlik va uni davlat manfaatlari bilan bog'lash muhim tamoyil sifatida joriy etila boshladi. Mehnat tashkil etish jarayonida kishilarning kasbiy mahorati, bilimi, tajribasi, ko'nikma va malakasi, mehnat madaniyati, mehnatni tashkil etish ijodiy yondashish kishilarning mehnat va mulkka bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi mezonga aylandi. Mulk nima? Har bir inson o'zining ongli faoliyatida mulkka ega bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. mulk- insonning aqliy' va jismoniy mehnat faoliyatida yaratilgan' va uning normal yashashi uchun kafolat beradigan moddiy va intellektual boyliqdir.

Mulk avloddan- avlodga meros bo'lib o'tishi ham mumkin. Mulkdorning tasarrufida bo'lgan barcha tirikchilik va ishlab chiqarish vositalaridir. Mulkning shaxsiy, xususiy, jamoa, davlat mulki singari shakllari mavjuddir. Mulk egasi o'z tasarrufidagi mulkni avaylab- asraydi, tejaydi, undan oqilona foydalanadi va muttasil ravishda ko'paytirishga xarakat qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat xususiy mulkni qo'llab- quvvatlashga, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirishga, xususiy mulk daxlsizligini huquqiy kafolatlashga, tadbirkorlik va ishbilarmon rivojlantirish

---

<sup>24</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон XXI Аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари-Т.: Ўзбекистон, 1997. - Б.174.



uchun imtiyozli kreditlar berishni yo'lga qo'yadi. Bu esa kishilarning mulkdor bo'lishi, o'rta mulkdorlar sinfining shakllanishi uchun keng imkoniyat yaratadi; Mustaqillik sharoitida aqliy mehnat mahsuli bo'lgan fan, san'at asarlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari ta'lim- tarbiyaning yangi konsepsiyalarini yaratish intellektual mulk hisoblanadi. Intellektual mulk egasi o'z mehnati mahsulini o'z xohishicha tasarruf etadi. bunday mulkning qadr- qimmati, bahosi, sifati, jamiyatda tutgan o'rni raqobatli muhitda yaqqol namoyon bo'ladi.

Intellektual mulkning talabgori, buyurtmachisi davlat va jamiyatdir. Mehnat jarayonida yaratiladigan har qanday mahsulot o'z qiymatiga ega bo'ladi. Qiymat mahsulotda o'z ifodasini kuchi, qobiliyati, bilimi sarflagan vaqti, xom-ashyo, yoqylg'i, energiya yo'l xarajatlari uchun mablag'i va xokazolardir.

Mulkdor mahsulot ishlab chiqarishga kamroq xarajat qilib, ko'proq foyda olishga intiladi. Foyda- bozor munosabatlari sharoitida amal qiladigan muhim qonuniyatlardan biridir. Xususiy mulkning rivojlanishida foyda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hozirgi paytda mehnat, mulk foyda tushunchalarini falsafiy- iqtisodiy jihatdan teran idrok etish, yoshlar dunyoqarashida yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish va ularni jahon sivilizatsiyasi standarti talablari darasida fikr yuritishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zamin yaratadi.

«Jahon sivilizatsiyasi xazinasiga ulkan hissa qo'shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatimiz, ko'p avlodlar hayoti davomida vujudga kelgan beqiyos tabiiy va aql- zakovat imkoniyatlarimiz, xalqimizning yuksak ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarini, zaminimizda yashayotgan odamlarning mehnatsevarligi, sahovatlilik, bag'rikengligi. va jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga bo'lgan istagi buning garovidir»<sup>25</sup>.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida o'rta mulkdorlar sinfi shakllanmoqva, ular esa o'z navbatida shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining tayanchidir .

---

<sup>25</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари - Т.: Ўзбекистон, 1997.- Б.187.

Fuqarolik jamiyatiga xos nodavlat uyushmalar mamlakat hayotida salmoqli o‘rin egallamoqda. Hozirgi vaqtda xalq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi umumiy miqdorining va hosil qilingan milliy daromadning 70 foizi, sanoat mahsulotining 53,5 foizi, qishloq xo‘jalik mahsulotining 97,7 foizi davlatga qarashli bo‘lmagan sektor hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Ijtimoiy struktura elementlari kishilarning turlicha birliklaridan tashkil topadi. Bular:

- 1) ishlab chiqarish birliklari (korxonalar, mehnat jamoalari, dehqon-fermer xo‘jaliklari, shirkat xo‘jaliklari);
- 2) mehnat jamoalari (muassasalar, tashkilotlar, idoralar, firmalar, ilmiy tekshirish institutlari);
- 3) siyosiy birliklar (davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar);
- 4) xududiy birliklar (shahar, qishloq, tuman, o‘lka, vodiylar);

## **II.2. Strukturaviy yondoshuv –barqarorlikni ta'minlashning muhim omili:**

### **ijtimoiy struktura va mafkuraviy jarayonlar**

Mafkura ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy munosabatlar moddiy va mafkuraviy munosabatlardan tashkil topadi. Moddiy munosabatlar inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lsa, mafkuraviy munosabatlar inson ongida shakllanadi.

Mafkura jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, hech bir jamiyat mafkurasiz bo‘lishi mumkin emas. Aynan mafkura jamiyatning u yoki bu yo‘nalishda rivojlanishini belgilab beruvchi g‘oyalar tizimidir.

Mafkuraviy jarayonlarga ijtimoiy struktura nuqtai nazaridan yondoshish juda zarur va muhim, aks holda mafkura targ‘ibotida hech qanday muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Chunki mafkurada albatta biror bir strukturaviy element ishtirok etadi, Bular yo millat, yo guruh, yo tabaqa, yo

diniy oqim, yo siyosiy oqim bo'lishi mumkin. Milliy g'oya ana shulardan har birining va barchasining umumiy manfaatlarini o'zida ifodalaydi.

Mafkura jamiyatda tutgan o'rniga qarab turli xil mavqyega ega bo'lishi mumkin. Mafkura turli sinf, guruh yoki toifalar yoki ayrim kishilar tomonidan ishlab chikariladi. Shuning uchun shu mafkurani ishlab chiqqan guruhlarining ijtimoiy, siyosiy ahvoliga qarab, u davlat mafkurasi bo'lishi mumkin. Chunki hokimiyatni alohida guruh yoki sinf egallab olgan bo'lsa, u o'z g'oyalarini davlat mafkurasi darajasiga ko'taradi. Masalan, bir qancha musulmon davlatlarida diniy mafkura davlat mafkurasi hisoblanadi yoki o'rta asrga nazar tashlaydigan bo'lsak, diniy mafkura siyosiy, huquqiy, axloqiy mafkuraga aktiv ta'sir o'tkazganini ko'ramiz. Chunki bu davrda davlat ishlarida din salmoqli o'rinni egallardi.

«O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hyech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas»<sup>26</sup>.

Bizningcha jamiyatda davlat mafkurasi bo'lishi ancha havfli. Birinchidan, hokimiyatni doim ham adolatli insonlar boshqaravermaydi. Ikkinchidan, davlat hokimiyatida bir emas, bir necha partiya va xalq vakillari mavjud va ularning har biri, ayniqsa, partiyalar muayyan mafkura tarafdorlari bo'lishlari mumkin. Uchinchidan, xudo ko'rsatmasin, sirdan vatanparvar, xalqparvar bo'lib ko'ringan, lekin diniy ekstremizm yoki millatchilik kayfiyatidagi kishi yoki partiya hokimiyat tepasiga kelib qolsa, u o'z mafkurasini davlat mafkurasi darajasiga ko'tarishi mumkin. To'rtinchidan, O'zbekistonda jamiyat qonun ustivorligi tamoyili asosida boshqariladi. Ya'ni, e'tiqodi, dini, irqi va boshqa tafovutlaridan qat'iy nazar, hamma qonun oldida tengdir. Beshinchidan, O'zbekiston Konstitutsiyasi uni davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilishiga yo'l

---

<sup>26</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон. 1992 - Б.11.

qo‘ymaydi. Davlatimiz huquqiy fuqarolik jamiyati sari ilgarilab borishi fikrlar xilma-xilligiga asoslangan.

Mafkura iqtisodiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u ma'lum ijtimoiy guruh, sinf yoki jamiyat manfaatlarini ifodalovchi siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, diniy va boshqa qarashlar sistemasidan iborat. U ustqurmadagi eng muhim elementlardan biri hisoblanadi.

Inson universal siyosiy mavjudot bo‘lib, u turli xil vaziyatlarga moslashib borish qobiliyatiga ega. Shuning uchun ham inson rivojlanishining eng muhim omillaridan biri o‘z e’tiqodi asosida yashash va ko‘pchilikning foydasiga faoliyat ko‘rsatishdan iboratdir. Inson e’tiqodi soxta, mavhum qarashlar, ko‘r-ko‘rona harakatlar yig‘indisi emas, balki, jamiyat taraqqiyotidagi aniq maqsad va vazifalarni ko‘zlovchi g‘oyaviy voqye'likdir.

Demak, har qanday millat, xalq o‘z g‘oyaviy asoslarini –mafurasini yaratmay kelajagini oldindan tasavvur qila olmaydi. Mafkuraning ahamiyati va mohiyati shundan iboratki, u jamiyat a'zolarining u yoki bu tarixiy bosqichdagi ijtimoiy tuzumni mustahkamlash yoki uni boshqa bir ijtimoiy tuzum bilan almashtirishdagi tub maqsad va vazifalarini belgilaydi, ularga olib boradigan yo‘llar va tayanch nuqtalarini aniqlaydi, kishilar irodasini ana shu maqsadlar to‘g‘riligiga ishontirish, ixlos qo‘ydirish orqali kurashga ruhlantiradi. Mafkura ustqurmaning boshqa elementi bo‘lgan ijtimoiy psixologiya bilan umumiy asosga ega, u ham bo‘lsa, ijtimoiy borliqdir. Ijtimoiy psixologiya turli xil ijtimoiy g‘oyalar va nazariyalarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir etadi.

Mafkura muayyan darajada o‘zida ijtimoiy tuyg‘u va kayfiyatlarni ifodalaydi. Ammo ijtimoiy psixologiya mafkuraning yagona manbai emas, g‘oyalar va nazariyalarda eng avvalam bor real ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy guruh yoki millatlarning faoliyati aks etadi.

Ijtimoiy psixologiya va mafkura o‘rtasidagi tafovut shundan iboratki, ijtimoiy psixologiyada tuyg‘ular, hissiyotlar hali nazariy jihatdan shakllanmagan, asoslanmagan bo‘ladi. Mafkurada g‘oyalar va qarashlar

sistemalashtiriladi. Nazariy jihatdan asoslanadi. Mafkurada ijtimoiy borliq u yoki bu ijtimoiy guruh tomonidan turib ayrim kishilar, olimlar, siyosatchilar tomonidan nazariy jihatdan asoslanadi. Jamiyatda turli xil ijtimoiy guruhlar mavjud bo'lgani tufayli mafkuralar ham turlichadir.

Har bir jamiyatda ishlab chiqarish munosabatlarining muayyan turlari mavjud bo'lib, ular orasida ayrimlari mamlakat iqtisodida yetakchi o'rini egallaydi. Jamiyatda yetakchi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi mafkura shu jamiyatning hukmron mafkurasi bo'lib qoladi.

Jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari bir xilda amal qilishi uchun turli xil toifalarning, turli xil sinf va ijtimoiy guruhlarning bo'lishi tarixiy zaruriyatdir, masalan, xususiy zavod yoki fabrika erkin yollanma ishchisiz o'z ishini tashkil qila olmaydi. Bularning jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy ahvoli, obro'si ham turlicha, ularning iqtisodiy turmush tarzi ham turlicha bo'lgani tufayli, fikrlash darajasi ham turlicha bo'ladi. Turli xil ijtimoiy ruhiyat nazariy jihatdan sistemalashtiriladigan bo'lsa, turli xil mafkuralar vujudga keladi. Ijtimoiy guruh qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u eng avvalo, o'z iqtisodiy manfaati va ehtiyojlarini ifodalovchi nazariyalarni yoqlab chiqadilar. «Hozirgi iqtisodiy siyosatning mohiyati va yo'nalishi aslida yangi jamiyat tuzumini va vatan xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Bu ikki masala hal qilingandan keyingina, tom ma'nodagi farovon hayot haqida gap bo'lishi mumkin».<sup>27</sup>

Huquqiy va siyosiy mafkura agar u jamiyatda hukm surayotgan ishlab chiqarishni yoqlab chiquvchi mafkura bo'lsa, uni amalda ya'ni huquqiy va siyosiy munosabatlarda davlat qonun yo'li bilan turli xil ijtimoiy guruh va sinflar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Masalan, barcha bozor iqtisodi mamlakatlarida xususiy mulkchilik qonun yo'li bilan mustahkamlanadi va davlat tomonidan himoya qilinadi. qonun esa turli xil sinflar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Jamiyatda kishilar

---

<sup>27</sup> Зияев Х. Замон садоси//Мулоқот. 5/6. 1995.-Б.8.

hyech qachon bir-birlari bilan teng bo‘la olmaydilar. Ular faqat huquqiy jihatdan tengdirlar, xolos.

Shunday ekan millat ichidagi turli xil ijtimoiy guruh hamda qatlamlar turli xil turmush tarziga, turli xil moddiy turmush sharoitiga ega bo‘ladilar. Millat ichidagi ana shu toifalar o‘z navbatida o‘ziga xos ruhiy xususiyatlarga, ya'ni ruhiy kechinmalarga ega bo‘ladilar va ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga o‘z manfaatlarini ifodalagan tarzda yondoshadilar. Shuning uchun ham S. Mamashokirov ana shu nozik masalaga e'tibor berish zarurligini ta'kidlab o‘tadi: “... hozirdanoq, mafkuraning ijtimoiy iqtisodiy tabaqalarni murosaga keltiradigan nazariy-konseptual asoslarini shakllantirish zarur”<sup>28</sup>.

«Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad - yurtimizdagi turli millat ijtimoiy toifa va kasbu-korga mansub bo‘lgan keng ommani ogohlikka chaqirish, mavjud xavf va tahdidlarning mohiyatini anglab yetishi ular haqida jamoatchilik fikrini uyg‘otish, eng muhimi milliy g‘oya, milliy mafkura asosida xalqimizni birlashtirish, yanada jipslashtirishdan iborat»<sup>29</sup>.

Hozirgi zamon mafkuraviy munosabatlari keskinlashuvi sharoitidan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda milliy g‘oyani shakllantirishda umummilliy manfaat va umummilliy taraqqiyot nuqtai nazaridan yondoshuv, milliy g‘oyaning mohiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo‘lib qolmoqda. Ana shu hayotiy ehtiyojdan kelib chiqib milliy g‘oyani shakllantirishda ijtimoiy struktura nuqtai nazaridan yondoshuv zarur deb hisoblaymiz.

**Birinchidan, ijtimoiy ahvoli nuqtai nazaridan yondoshuv.** Bunda milliy g‘oya targ‘ibotida jamiyat taraqqiyotida uning (milliy g‘oyaning.) ustuvorligi roldan kelib chiqib jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy ong yo‘nalishlari, ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o‘rganishni yo‘lga quyish kerak. Aholi turli qatlamlari qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikrlash tarzini aniqlab borish zarur. Bu jarayonda ularning manfaatlarini

---

<sup>28</sup> Mamashokirov S. Инсон, маънавият, зиддият //Мулоқот. 1/2001.-Б.19.

<sup>29</sup> .Каримов И. А. Хушерликка даъват. Т.: Ўзбекистон. 1999.-Б.6.

hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy g'oya targ'ibotida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri-"Fokus guruhlar"dir. Aslida bu usulning paydo bo'lishi sotsiologiya fani bilan bog'liqdir. Ammo sotsiologiyaning o'zi jamiyatni tadqiq qiluvchi fan bo'lgani uchun, ushbu usulning "qadri" jamiyatning boshqa sohalari uchun ham birdek qimmatlidir. Bu usulning mohiyati-tanlab olingan yoki boshqa guruhlarini intervyu asosida fikrlari o'rganish va shu asosida, qo'yilgan muammoning manzarasi ochib beriladi va bartaraf etiladi. Milliy g'oya targ'ibotida bu usulning qo'llanilishi, avvalo, targ'ibot samarasini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatdagi u yoki bu guruh ichidan ixtiyoriy tanlov asosida saralab olingan respondentlarning fikrlari asosida ana shu jamiyatda milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirishga doir fikrlar, yo'nalish va albatta ilmiy nazariyalar ilgari suriladi.

**Ikkinchidan, millatlararo munosabatlar nuqtai nazaridan yondoshuv.** Ko'p millatli mamlakatda, xususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekistonda millatlararo mojarolarni, turli siyosiy manfaatlar va buzg'unchi g'oyalar ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan siyosiy nizolarni o'rganib borish. Bu borada aniq hisob-kitoblarga, tahliliy yechimlarga ega bo'lish. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar turli millatlar manfaatlarini uyg'unligida amalga oshirilmoqda.

Milliy g'oyaning shakllanishiga 2 xil omil faol ta'sir o'tkazadi. Birinchisi, O'zbekistonda turli xil mulk shakllarining hamda bozor munosabatlarning vujudga kelishi va buning natijasida turli xil yangi ijtimoiy tabaqalarning vujudga kelishi va takomillashuvi. ikkinchisi, O'zbekistonda turli xil millatlarning mavjudligi.

Ana shu omillar ichida biz uchun eng nozik masala milliy masaladir. Milliy g'oya shu aziz Vatanda yashayotgan har bir insonni uning dini, irqi, qaysi toifaga mansubligi, millatidan qat'iy nazar, himoya qilmog'i lozim. Kindik qoni to'kilgan yer u kim bo'lishidan qat'iy nazar uning uchun Vatandir. O'zbekistonda

tugʻilgan har bir inson oʻz ona vatanini sevmogʻi, ardoqlamogʻi, uning uchun kerak boʻlsa jonini fido qilmogʻi lozim. Barcha millatlarning, barcha ijtimoiy guruhlarining manfaatini birdaniga ilgari sura oluvchi mafkurani yaratish faqat umuminsoniylikdan foydalanish degani yoki sinfiylik va milliylikni inkor etish degani emas, balki sinfiylik va milliylikni toʻla hisobga olish va uni umuminsoniylik darajasiga koʻtarish demakdir. Mafkurada milliylikni eʼtirof etish u aynan bir millatning manfaatini eʼtirof etib, qolgan millatlarning manfaatini inkor etish, degan maʼnoni anglatmaydi. “Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga oʻxshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo holi boʻlib, qoʻshni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda oʻzimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo boʻlishi darkor”<sup>30</sup>. Biz milliylik tarafdorimiz lekin millatchilikka qarshimiz. Milliylik va umuminsoniylik munosabatlarini hisobga olmaslik millatchilikka olib keladi.

I.Karimov milliy masalaga jiddiy eʼtibor bergan holda, shunday yozadi: “... bir millat oʻz ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining huddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ruyobga chiqarmasligi lozim. Baʼzi millat, etnoslar vakillarining boshqalarga takkaburlik bilan, mensimay munosabatda boʻlishi kabi holatlar yuzaga chiqishi mumkin boʻlgan har qanday sharoitga barham berish lozim»<sup>31</sup>.

Yagona Oʻzbekistonda hiech qanday millatga birorta imtiyoz boʻlmasligi kerak. Mustaqil Oʻzbekistonning Konstitutsiyasi ham shuni eʼtirof etadi. “Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qatʼiy nazar, qonun oldida tengdir”<sup>32</sup>. Mustaqillik mafkurasini ishlab chiqishda har qanday milliy imtiyozni himoya qilish, milliy

---

<sup>30</sup> И.Каримов Жамиятимиз мафкуриси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин// Таффакур 2/1998.-Б.8.

<sup>31</sup> Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: 1997.-Б.74.

<sup>32</sup> Ўзбекистон Республикаси Коснституцияси. 18-модда. Т.: 1992.



adovatni keltirib chiqaradi. Umuminsoniylik prinsipi barcha millatlarning tengligini e'tirof etish, demakdir.

«Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - yurtimizdagi turli millat ijtimoiy toifa va kasbu-korga mansub bo'lgan keng ommani ogohlikka chaqirish, mavjud xavf va tahdidlarning mohiyatini anglab yetishi ular haqida jamoatchilik fikrini uyg'otish, eng muhimi milliy g'oya, milliy mafkura asosida xalqimizni birlashtirish, yanada jipslashtirishdan iborat»<sup>33</sup>.

---

<sup>33</sup> .Каримов И. Хушерликка даъват.– Т.: Ўзбекистон. 1999.-Б.6.

## Xulosa

Ijtimoiy struktura jamiyat anatomiyasi bo‘lib, ijtimoiy mehnat taqsimoti, mulkchilikning xilma-xil shakllari taqozosi bilan jamiyatning katta va kichik guruhlarga, ijtimoiy birlik va ijtimoiy toifalarning mavjudligini anglatadi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va fuqarolarnng o‘z- o‘zini boshqarish institutlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilyapti.

Turli xil mulk shakllariga ega bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, huquqiy munosabatlarni boshqarishda, har bir toifaning manfaatlari hisobga olinsa, ularning jipsligi ortadi. Jumladan milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda ham har bir toifani butunning ajralmas qismi sifatida olib qarash kerak. Bobomiz Buyuk Temurning ham yengilmas davlat tuzishida har bir toifaning ruhiyatidan tortib, toki manfaatlarigacha hisobga olinganligi juda katta rol o‘ynagan. “Saltanatimni o‘n ikki toifaga bo‘lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifa saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi, deb hisobladim”<sup>34</sup>. Sohibqiron saltanatining qudrati ham shundaki, u toifalarni bir-biriga qarshi qo‘ygan emas, balki ularning har birini jamiyatning zarur a'zosi sifatida ularning mushtarakligini ta'minlashga harakat qilgan.

Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy g‘oya va milliy mafkura insonga biryoqlama qarashlarga zid ravishda, undagi moddiylik va ma'naviylikni uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy - badavlat, mulkdor, barcha qulayliklarga ega bo‘lishini inkor etmaydi, balki, aksincha, ularni tadbirkor, uddaburon va mehnatsevar bulishga rag‘batlantiradi. Yuksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolat doirasida yashashga, saxiy va oliyhimmat bo‘lishga olib keladi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining barpo etilishi jarayonida jamiyatning ijtimoiy strukturasida tub sifatiy o‘zgarishlar vujudga keladi,

---

<sup>34</sup> Темур тузуклари –Тошкент:1991.-Б. 64.

hozirgacha amal qilib kelgan ijtimoiy institutlar faoliyatida sifatiy o'zgarishlar ro'y beradi. Davr talablariga javob beradigan yangi ijtimoiy institutlar paydo bo'ladi.

I. A. Karimovning qator asarlarida o'tish davrida jamiyatimizning ijtimoiy- siyosiy strukturasi va ma'naviy qiyofasida ro'y beradigan tub sifatiy o'zgarishlar ilmiy- nazariy jihatdan tavsiflab berildi. Ularda ilgari surilgan xulosalar jamiyatimiz hayotida ro'y beradigan murakkab ijtimoiy- siyosiy va madaniy jarayonlarning mohiyati va rivojlanish tendensiyasini ilmiy-falsafiy jihatdan idrok etishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari bir xilda amal qilishi uchun turli xil toifalarning, turli xil sinf va ijtimoiy guruhlarning bo'lishi tarixiy zaruriyatdir, masalan, xususiy zavod yoki fabrika erkin yollanma ishchisiz o'z ishini tashkil qila olmaydi. Bularning jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy ahvoli, obro'si ham turlicha, ularning iqtisodiy turmush tarzi ham turlicha bo'lgani tufayli, fikrlash darajasi ham turlicha bo'ladi. Turli xil ijtimoiy ruhiyat nazariy jihatdan sistemalashtiriladigan bo'lsa, turli xil mafkuralar vujudga keladi. Ijtimoiy guruh qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u eng avvalo, o'z iqtisodiy manfaati va ehtiyojlarini ifodalovchi nazariyalarni yoqlab chiqadilar. «Hozirgi iqtisodiy siyosatning mohiyati va yo'nalishi aslida yangi jamiyat tuzumini va vatan xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Bu ikki masala hal qilingandan keyingina, tom ma'nodagi farovon hayot haqida gap bo'lishi mumkin».<sup>35</sup>

Mamlakatimizning milliy mustaqillik yillarida orttirgan tajribasi jamiyat barqarorligi, tinch-totuvligini ta'minlashda ijtimoiy sohaga ko'proq e'tibor berishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. «Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davrida biz oldindan butun aholini ijtimoiy himoyalash yo'lidan bordik. Bu chora-tadbirlar odamlarning turmush darajasi keskin pasayib

---

<sup>35</sup> Зияев Х. Замон садоси//Мулоқот. 5/6. 1995.-Б.8.

ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi. Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlab qolish omili bo'ldi»<sup>36</sup>.

Jamiyatning rivojlanishida kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi muhim rol o'ynaydi. Kishilarning qobiliyatiga qarab mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida turli kasblar bilan shug'ullanadigan qator toifalar, guruhlar, qatlamlar va sinflar vujudga keladi. Ular jamiyat strukturasi o'ziga xos o'rinni egallaydilar; jamiyat taraqqiyotiga muayyan xissa qo'shadilar.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish usullari milliy g'oya va mafkurada o'z ifodasini topadi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirish, xususiy mulkchilikni qo'llab-quvvatlash, taraqqiy etgan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar qurish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, chet mamlakatlar bilan ilmiy, madaniy va texnikaviy hamkorlikning milliy manfaatlar yo'lida xizmat qilishi milliy g'oya va mafkuraning mohiyatidan kelib chiqadi. Milliy mafkura o'zida jamiyat a'zolarining ezgu orzu-umidlarini, maqsadlarini ifodalaydi; ularning mehnat faolligi, ijtimoiy-siyosiy aktivligini oshiradi, jamiyatni takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

---

<sup>36</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.-Б. 218.

## **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va qonunosti hujjatlari**

I.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2015.-76 b.

I.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" //Ma'rifat, 2006 yil 26-avgust.

### **II. Rahbariy adabiyotlar:**

II.1. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1 - жилд. - Т.: "Ўзбекистон", 1996 – 364 б.

II.2. Каримов И. А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. 2 - жилд. Т.: "Ўзбекистон", 1996-380 б.

II.3. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3 - жилд Т.: "Ўзбекистон", 1996 – 349 б.

II.4. Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 - жилд. Т.: "Ўзбекистон", 1996 – 349 б

II.5. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш-давр талаби. 5-жилд. Т.: "Ўзбекистон", 1997 – 384 б.

II.6. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6 - жилд. Т.: "Ўзбекистон", 1998 – 429 б.

II.7. Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7 - жилд. Т.: "Ўзбекистон", 1999 – 410 б.

II.8. Каримов И. А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 8 - жилд. Т.: "Ўзбекистон", 2000 – 528 б.

II.9. Каримов И. А. Истиқлол йўли: режалар ва муаммолар. Т.: Ўзбекистон, 1992 - 31 б.

II.10. Каримов И. А. Ўзбекистон бозор муносабатларига ўтишининг ўзига хос йўли. Т.: "Ўзбекистон", 1993 - 108 б.

- II.11. Каримов И. А. Ўзбекистон иқтисодий сиёсатининг устивор йўналишлари. Т.: "Ўзбекистон", 1993 - 56 б.
- II.12. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг БМТ бош Ассамблеясининг 48-сессиясидаги маърузаси. 1993 йил, 28 сентябрь. Т.: "Ўзбекистон", 1993 – 27 б.
- II.13. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т.: "Ўзбекистон", 1995 - 74 б.
- II.14. Каримов И. А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т, "Ўзбекистон", 1995.
- II.15. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: "Ўзбекистон", 1997 – 326 б.
- II.16. Каримов И. А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. Т.: "Ўзбекистон", 1997 - 36 б.
- II.17. Каримов И. А. Кучли давлатдан кучли жамият сари. Т.: "Шарқ", 1998 - 110 б.
- II.18. Каримов И. А. Жамиятимиз мафқураси халқни – халқ, миллатни миллат килишга хизмат этсин. // Тафаккур, 1998, 2 - сон, III-XV б.
- II.19. Каримов И. А. Халкимиз жипслиги - тинчлик ва тараққиёт гарови. Т.: "Ўзбекистон", 1998 - 48 б.
- II.20. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. Т.: "Шарқ", 1998 - 31 б.
- II.21. Каримов И. А. Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан курмоқдамиз.. Т.: "Ўзбекистон", 1999 - 32 б.
- II.22. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.: "Ўзбекистон", 1999 - 48 б.
- II.23. Каримов И. А. Адолат ҳар ишда хамрохимиз ва дастуримиз бўлсин. // Мулоқот. 1999, 1 - сон, 1-5 б.
- II.24. Каримов И. А. Ҳушёрликка даъват. Т.: "Ўзбекистон", 1999 – 31 б.

- II.25. Каримов И. А. Ватан озодлиги - олий саодат. Т.: "Ўзбекистон", 1999 - 61 б.
- II.26. Каримов И. А. Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. // Фидокор. 2000 йил, 8 июнь.
- II.27. Президент И. А. Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 9 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. // Фидокор. 2000 йил, 1 сентябрь.
- II.28. Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт - пировард мақсадимиз. Т.: "Ўзбекистон", 2000 – 120 б.
- II.29. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari.T.18.-Toshkent: O'zbekiston, 2010.-264 b.
- II.29. Karimov I.A. Bizning yo'limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. T.20.-Toshkent: O'zbekiston, 2012.-320 b.
- II.30. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. T.21.-Toshkent: O'zbekiston, 2013.-416 b.
- II.31. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston, 1997.- 320 b.
- II.32. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-176 b.
- II.33. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatining birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2016.- 32 b.
- II.34. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 48 b.

II.35. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- Toshkent: O'zbekiston, 2017.-104 b.

II.36. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.-488 b.

II.37. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola.-Toshkent: Ma'naviyat, 2017.-244 b.

### **III.Илмий, ўқув адабиётлар**

III. 1. Аристотель. Метафизика – М.: 1937.- 457с

III. 2. Барулин.В.С. Социальная философия. – М.: ФАИР-ПРЕСС,1999–495 с..

III. 3. Гегель. В. Ф. Философия права – М.1970 – 348 с.

III. 4. Исломов З. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага.- Т.: ТДЮИ. 2002 – 187 б.

III.5.Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. I-қисм.– Тошкент: 2004.–564 б.

III. 6. Йўлдошев С. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Т.:Шарқ, 2003 – Б.51.

III. 7. Назаров Қ. Билиш фалсафаси. – Т.: Университет– 238б.

III. 8. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. Т.: Шарқ,-2010– 374 б.

III. 9. Режин. В. П. Введение в марксистскую социологию – М.1962.– 257с.

III. 10. Руссо.Ж.Ж. Об общественном договоре или принципы политического права. -М. : Гос издат: 1938. –157 с.

III.11. Фалсафа. (Э.Ю.Юсуповнинг умумий таҳрири остида.) -Т.: Шарқ , 1999. -496 б.

III. 12. Шермухамедова Н .Фалсафа.– Т.: 2010.–231б.



#### **.IV. Davriy nashrlar**

.IV. 1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ’ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” //O`zbekiston Ovozi, 2017 yil, 24-may.

#### **V. Internet materiallari**

V.1. <http://www.uzhurriyat.uz/index.php/ijtimoiy-hayot/1044-ma-naviy-tahdidlar-ta-siri>

V.2. <http://buxdu.uz/index.php/ru/sotsialnaya-sfera/duhovno-prosvetitel-skie-meroprijatija/452-yoshlar-va-globallashuv-davrida-mafkuraviy-tahdidlar>

V.3. <http://fikir.uz/blog/436/17435.html>

V.4. [http://strategy.gov.uz/uz/pages/action\\_strategy](http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy)

V.5. [харакатлар стратегияси - О Стратегии действий по дальнейшему strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2](http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2)

V.6. [Харакатлар стратегияси: таҳлил, хулоса, режа - Biznes-daily.uz](http://www.biznes-daily.uz/.../49809-harakatlar-stratgiyasi-tahlil-x)  
www.biznes-daily.uz/.../49809-harakatlar-stratgiyasi-tahlil-x.

V.7. [Харакатлар Стратегияси - О Стратегии Действий По Дальнейшему strategy.regulation.gov.uz/uz/](http://strategy.regulation.gov.uz/uz/)